Boshqa so'zlar bilan aytganda, bulutli hisoblash - ularning maqsadlari, vazifalari va loyihalarni erishish uchun apparat, dasturiy ta'minot, metodologiyasi va Internet xizmatlari kabi foydalanuvchiga mavjud vositalar turlichadir.

Bulutli texnologiyalardan foydalanishning afzalliklari va kamchiliklar:

- bulutli texnologiyalardan foydalanishning afzalliklari to'g'risida aytadigan bo'lsa, eng avvalo iste'molchilar kompyuterlardan ishlash kuchi karakteristikalariga qaramaydi. Kompyuterlar yuqori kuchda ishlashi uchun, katta xotira va ko'p hajmli disklarga ega bo'lgan bo'lishlari shart emasdir. Chunki barcha ma'lumotlar va hamma dasturlar bulut serverlaridadir.

Kamchiliklari:

- Doimiy Internet tarmog'i bilan aloqada bo'lishi lozimdir. Bulutli hisoblash texnologiyalaridan foydalanishda har vaqt tarmoq Internetga ulangan bo'lishi lozim. Bundan tashqari bir necha ilovalar mavjud bo'lib, ular kompyuterlarga yuklanadi va ulardan uzoq muddatgacha ishlash imkoniyati bo'ladi. Boshqa holatlarda esa har doimgidek oddiy hisoblanib, ulanish bo'lmasa ish ham bo'lmaydi. Ko'pchilikning fikricha bu bulutli hisoblashlarning eng katta kamchiligi deb yuritishadi. Axborot texnologiyalari rivojlanishini hisobga olgan holda shuni aytishimiz mumkinki Internet tarmog'i hozirgi kunda har bir joyda mavjuddir. Shuning uchun bu muammoli qarashlar tez orada umuman e'tibordan chiqadi.

- Ishlash tezligi sekinligi. Ko'pgina bulutli servislar to'laqonli ishlashlari uchun normal Internet - ulanishni talab qiladi. Bu muammoni kelib chiqishini oldini olishda choralar ko'rilmogda va bu muammo tez orada hal qilinishiga ishonch yuqoridir.

- Dasturlarning sekin va to'liq funksional imkoniyatlarga ega bo'lmagan holda ishlashi. Bir necha dasturlar bulutli tizimlarda lokal kompyuter tizimiga qaraganda sekin ishlashlari mumkindir. Bu uzoq masofadagi serverlarni yuklash qiyinchiliklari tufayli yuzaga kelishi mumkin.

- Ma'lumotlar xavfsizligiga xavf borligi. Iste'molchilar tomonidan bulut texnologiyalariga qo'yilgan har bir ma'lumot xavfsizligi xavf ostida bo'lishi mumkin. Lekin bunda birinchi masala provayderga iste'molchining ishonishi muhimdir. Agar bulutli texnologiyalar provayderi ma'lumotlar almashishini ishonchli shifrlasa, zaxira nusxalasa va bulutli texnologiyalar sohasi bozorida o'ziga yarasha tajribaga ega bo'lsa bu holda xavfsizlik borasida muammolar tug'ilmaydi. Fakt sifatida shuni aytish mumkinki, bulutda yo'qolgan ma'lumotlarni qaytarish mumkin emasdir.

Bulutlar xususiyatlari:

- Talab etilganda o'ziga xizmat ko'rsatish;
- Tarmoqdan universal tarzda foydalanish;
- Resurslarning birlashtirilishi;
- Elastiklik;
- Iste'mol hisobi.

Self service on demand – iste'molchi o'z ehtiyojlariga kerakli ravishda hisob-kitob talablarini provayder bilan bog'lanmagan holatda o'zi aniqlaydi va o'zgartiradi. Masalan, server vaqti, ma'lumotni qayta ishlash tezligi, saqlanuvchi ma'lumotlar hajmi

kabidir. Tarmoqdan universal tarzda foydalanish istemolchilar qanday terminal qurilmasidan foydalanishidan qat'iy nazar, ular ma'lumot uzatuvchi tarmoqlardan foydalana oladilar. Ko'p iste'molchilarga xizmat ko'rsatish uchun quvvatini dinamik tarzda taqsimlab berish maqsadida provayder resurslarni yagona pulga birlashtiradi. Chunki quvvatga bo'lgan talab har doim o'zgarib turadi. Bunda iste'molchilar xizmatni faqat asosiy xossalarini, masalan ma'lumot hajmini, kirish tezligini boshqaradilar. Ammo aslida iste'molchiga taqdim etiluvchi resurslar taqsimotini provayder bajaradi.¹

Elastiklik - xizmatlar har qanday vaqtda, avtomatik tarzda ko'rsatilishi, kengaytirilishi va qisqartirilishi mumkin.

Iste'mol hisobi - bu provayder ishlatilgan resurslar hisobotini avtomatik tarzda bajaradi. Masalan, saqlanuvchi ma'lumotlar hajmi, foydalanuvchilar soni yoki tranzaksiyalar miqdori hamda ular asosida iste'molchilarga taqdim etiladigan xizmatlar hajmini baxolaydi.

Bulutli hisoblash hozirda tashkilotlarga infrastrukturallarni qanday ishlatish, harajatlarni tejash, uchinchi tomon provayderlariga bo'lgan majburiyatlarni topshiradi. U texnologiya va biznes modellarining ajralmas qismiga aylandi va korxonalarni yangi texnologiyalar strategiyalariga moslashishga majbur qildi. Bulutli xizmat modellari mijozlarga qanday qilib bulut xizmatlarini taqdim etishini tasvirlaydi. Shunga qaramay ushbu xizmatlarda bir qancha muammolar mavjuddir.

Ma'lumotlar va bulutdagi ma'lumotlar bazasini tarmoqda saqlash muammolari. Bulutli muhitlarda ma'lumotlar bazalarini boshqara bilish juda muhim xususiyat hisoblanadi. Bu oxirgi o'n yilliklarda o'rganilgan ma'lumotlar bazalarining o'z o'zini boshqarish texnologiyalarini ishlab chiqish zaruratini yuzaga keltirgan.

Virtuallashtirish muammosi apparatli resurslarni dasturdagidek amalga oshirishda namoyon bo'ladi. Platformlar va resurslarni virtuallashtirish turlari mavjuddir. Bulutda xizmat ko'rsatishni loyihalashtirish - bulutdagi hisoblar texnologiyasi turli xildagi bulutdagi xizmatlarni faqat elon qiladi xolosdir. Hozirgi paytda taqdim etilayotgan xizmatlarni aniq ixtisoslashtirishgan yondashuvlar mavjud emas.

Xulosa qilin aytadigan bo'lsak, bulutli hisoblar havfsizligi masalalari alohida tarzda o'rganib chiqishni taqozo etadi, chunki ular nafaqat texnik muammolar, balki bulut xizmatlaridan foydalanishda foydalanuvchilarning psixologik ishonchi muammolarini ham hal etish zaruratidan iboratdir. Shu bilan birga mashinalar va tarmoqlarni jismonan chegaralash bilan kafolatlanib bo'lmasligi bois, malumotlarning havfsizligi va konfidensialligini ta'minlash muammosining ham hal etilishi talab etiladi.

¹ Sh.I.Razzoqov, Sh.S.Yo'ldoshev, U.M.Ibragimov. Kompyuter grafikasi: O'quv qo'llanma. Toshkent: Noshir, 2013

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Мурыгин К.В. Концепция системы автоматического распознавания номеров знаков автомобилей //Искусственный интеллект. - Донецк, 2012. - № 4 (58). - С. 220-226.
2. Тратезников И. Н. Разработка и анализ системы распознавания автомобильных регистрационных знаков: Автореф. дисс. - Минск: ЯГУ им. П.Г. Демидова, 2002. - 20 с.
3. Маллабоев Н., Абдуллаева Н. МЕСТО СИСТЕМЫ "ЭЛЕКТРОННОГО ПРАВИТЕЛЬСТВА" В РАЗВИТИИ МАЛОГО БИЗНЕСА И ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА //Теория и практика современной науки. -2016. - №. 6-1. - С. 834-838.
4. Abdullaeva N., Mamurova F., Mallaboev N. EFFICIENCY OF EXPERIMENTAL PREPARATION USE MULTIMEDIA TO ENLARGE SOME QUESTIONS //Экономика и социум. - 2020. - №. 6. - С. 11-13.
5. ПЕРСПЕКТИВЫ ВНЕДРЕНИЯ НОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ДЛЯ РАЗВИТИЯ ТРАНСПОРТНОЙ СИСТЕМЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН, ОК Касимов, СС Ражапова - Экономика и социум, 2020. -№. 6. - С. 710-715.
6. Sh.I.Razzoqov, Sh.S.Yo'ldoshev, U.M.Ibragimov. Kompyuter grafikasi: O'quv qo'llanma. Toshkent: Noshir, 2013

O'QUVCHILARGA FIZIKA FANINI O'QITISHNING
INNAVATSION USULLARI FOYDALANISH

Baxtiyorjonov Omadjon Iqboljon o'g'li

Andijon davlat pedagogika instituti

Fizik va Astronomiya yo'nalishi talabasi.

omadjonbaxtiyorjonov0522@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumta'lim maktablarida fizika fanini o'qitishda sinflar darajasida o'quvchilar fikrlash doirasidan kelib chiqqan holda innavatsion va interfaol usullardan foydalanish haqida bayon qilinadi.

Kalit so'zlar: "Fizika", yorug'lik, trayektoriya, gipoteza, temperatura, absolyut, nisbiy, maydon, radiatsiya, radiaktivlik, raketa, biofizika.

Аннотация: В данной статье описывается полезность инновационных и интерактивных методов в преподавании физики в общеобразовательных школах на уровне класса, основанных на мышлении учащихся.

Ключевые слова: «Физика», свет, траектория, гипотеза, температура, абсолютная, относительная, поле, радиация, радиоактивность, ракета, биофизика.

Abstract: This article describes the usefulness of innovative and interactive methods in the teaching of physics in general schools at the class level based on the students' thinking.

Key words: "Physics", light, trajectory, hypothesis, temperature, absolute, relative, field, radiation, radioactivity, rocket, biophysics.

O'sib kelayotgan o'g'il-qizlarimizning har tomonlama barkamol avlod bo'lib, hayotga kirib kelishlarini ta'minlash jamiyat oldidagi eng ulug' maqsadlardandir. Bugungi tezkor davr o'quvchilardan mukammal bilim olishni talab etmoqda. Zero, yoshlarimizning kelajakda erishadigan muvaffaqiyati mustaqil bilim olish layoqati, o'z-o'zini rivojlantirish va takomillashtirish qobiliyatiga ega bo'lishi bilan belgilanadi. Bolalarga bunday munosabat ta'limga oid davlat siyosatida, uning hayotga joriy bo'layotgan tamoyillarida to'la namoyon bo'lmoqda.

"Fizika" fani 6-9-sinflarda haftasiga ikki soatdan o'qitiladi. 6-sinfda o'quvchilarga fizik hodisalar va kattaliklar haqida umumiy ma'lumotlar beriladi. Bu bilan o'quvchilarni fizikaga qiziqtiriladi, fizika fani haqida dastlabki tasavvur hosil qilinadi, tevarak-atrofdagi fizik hodisalarning mohiyatini elementar tarzda tushuntirish orqali ilmiy dunyoqarashlari shakllantiriladi.

6-sinfda o'quvchilar 4-sinfda o'qitilgan tabiatshunoslik fani va 5-sinfda o'tilgan botanika va geografiya fanlarida o'rganilgan:

- suv, yer, havo, olov, yomg'ir, qor, muz, tosh, temir, daraxt, o't, qush, baliq kabilarni;

- yorug'lik va qorong'ulikning farqini, osmon, quyosh, oy, yulduzlar haqidagi bilimlarni, ularning har kuni chiqishi va botishi haqidagi tasavvurlarni;

- o'zi yashayotgan joyning xususiyatiga muvofiq tog', vodi, dala, daryo, qishloq, shahar nima ekanligini bilishi kerak.

Bu tushunchalar orqali o'quvchilar jism va hodisalarni ko'ra olishi, eshitishi, qabul qila olishi va kuzata olishi kerak. Bu kuzatishlar orqali tabiiy geografiya, biologiya va kimyo predmetlari mazmunida uchraydigan fizikaga oid bilimlarni o'zlashtirishga tayyorlanadi.

O'quvchilar yuqori sinflarda fizika kursining barcha bo'limlarini sistemali ravishda o'rganadilar. Bunda fizika ta'limi mazmuni ijtimoiy hayotda, tevarakatofda uchraydigan fizik hodisalar va jarayonlar bilan bog'lab o'rgatiladi.

Fizika fani o'quvchilar qalbiga oson kirib borishi, ularning xotirasidan mustahkam o'rin olishida jonli misollar, hayotiy taqqoslar muhim ahamiyat kasb etadi. Ayni tajribadan har bir fan misolida samarali foydalanish mumkin.

Fizikaning tabiat sirlarini ochishdagi fundamental ahamiyatini va uning qonunlarining hozirgi zamon texnologiyasining asosini tashkil qilganligi hamda fizika sohasidagi bilimlar kelajakda jamiyat taraqqiyoti uchun benihoya katta ahamiyatga ega. Fizika o'quv predmeti sifatida shakllantirish uchun yetarli darajada imkoniyatlarga ega. Bu o'quv predmetining barcha texnik qurilmalarning asosi sifatida namoyon bo'lishi, egallagan bilimlarining hayotda hayotda qo'llash imkoniyatlarning ko'pligi bilan belgilanadi. Shu bilan birga, fizikani o'rganish jarayonida o'quvchi bilishning barcha bosqichlari (kuzatish, gipoteza, tajriba o'tkazish, mushohada qilish va natijalarni umumlashtirish)da o'tkaziladi.

O'quvchilarni fizika faniga qiziqtirishni bir nechta usullari mavjud. Masalan, fizikani boshlang'ich kursida o'quvchilarni xalq ertaklari va matallaridan foydalanish, yaxshi samara beradi. Bu ertak va matallar dars jarayonida, savol-javoblar, qiziqarli kechalar, fizikadan har xil mushoiralar, viktorinalar, quvnoqlar va zukkolar tanlovini o'tkazishda hamda darsdan tashqari mashg'ulotlar qo'l keladi. Ertak va matallardagi bunday obrazli o'xshatishlar fizika fanini boshqa fanlar bilan yaqinlashtirish, fizikadagi bir-biriga yaqin bo'lgan mavzularni birlashtirishda muhim ro'l o'ynaydi. Masalan, 6-sinfdagi boshlang'ich tushunchalarda moddiy nuqta, trayektoriya, yo'l va ko'chish, vaqt, tezlik kabi kattaliklarni tushuntirishda o'quvchilarni o'zlari uchun qiziqarli bo'lib qolgan „Bo'g'irsoq“ ertagi orqali qiziqtirish muhim ro'l o'ynaydi. O'rmon tomon yo'l olgan bo'g'irsoq trayektoriya orqali o'rmon yo'lagidan yurib, yo'lida har xil hayvonlarga duch keladi. Qo'shiq aytib berib, vaqtdan yutadi. Bu vaqt har xil hayvonlarda har xil bo'ladi. Bu mavzularda bo'g'irsoqning shakli sababli harakatining osonligi yo'lning notekisligi harakatga salbiy ta'sir qilmaydi. Ertakorqali

ko'chish, yo'l, trayektoriya, tezlik ,vaqt kabi fizik kattaliklar o'quvchilarga qiziqarli qilib tushuntiriladi.

Yana shunday ertaklardan „Qizil qalpoqcha” ertagi. Buvisinikiga yo'l olgan qizil qalpoqcha o'rmon yo'lagi orqali harakat qiladi. Bo'ri esa yo'lakdan yurmay, ko'chish orqali qizil shapkachadan oldin buvisinikiga yetib oladi. Bu ertak orqali ham yuqoridagi mavzularda foydalanib, o'quvchilarni fizika faniga qiziqtirish mumkin.

Yoshlik chog'larida o'quvchilarni sevimli ertaklaridan bo'lgan „ Sholg'om” ertagidagi hodisalar- kuch, og'irlik kuchi, ishqalanish kuchi, tortish kuchi mavzularida foydalanish mumkin. Bobo sholg'omni torta olmagach, yordamga buvi, nabira, it, mushuk va sichqonni chaqiradi: kuchlarni qo'shilish natijasida, sholg'om ornidan jiladi.

O'quvchilarni fizik hodisalarni o'rganishda mustaqil ravishda kuzatish, tajribalar o'tkazish, tajriba natijalarini umumlashtirish hamda darsliklar, o'quv qo'llanmalari va boshqa qo'shimcha adabiyotlardan foydalana olishga o'rgatish muhim o'rin tutadi.

Ma'lumki, organizm muhitning harorat (temperatura), ravshanlik(yorug'lik), namlik(absolyut va nisbiy), havo bosimi, shovqin, elektr va magnit maydoni, radiatsiya oqimi, radiaktivlik va shu kabi fizik xarakteristikalarining o'zgarishidan darhol ta'sirlanadi.

Fizikani o'rganishda o'quvchilarga biofizikaga oid materiallardan ham foydalanish mumkin. Biofizika elementlarini o'quvchilarga o'rgatishda o'qitishning turli formalaridan foydalanish mumkin:dars, ekskursiya, amaliy ish va laboratoriya mashg'ulotlari, o'quvchilarning mustaqil tadqiqot olib borish faoliyati, referatlar tayyorlashi va boshqalar. Biroq biofizikaga oid materialni o'rganishda ko'pincha darsdan foydalanish yaxshi natija beradi.

Kuzatishlar o'quvchilarni biofizika elementlari bilan tanishtirishda fragmentdan foydalanish maqsadga muvofiq ekanini ko'rsatdi, chunki u juda kam o'quv vaqtini sarf qilishni talab etadi va fizika bilan biologiyaning bog'lanishini sistemali amalga oshirilishini ta'minlaydi. Buning uchun ancha ko'p vaqtdan foydalanish o'quvchilarning sinfdan va maktabdan tashqi faoliyatining turli xillari va fakultetiv mashg'ulotlar uchun xarakterli deb hisoblanadi.

O'rganish uchun ajratib olingan biofizik materialni didaktik jihatdan shunday o'zgartirish kerakki, uni fizikaning aniq bir mavzularini o'rganish uchun eng yaxshi holga keltirish lozim bo'lsin, chunki, o'quvchilarga biofizika elementlarining mazmunini ochib berishning metod va formalari o'quvchilar o'quv faoliyatini tashkil etishning turli usullarini va alohida o'qitish metodlarini talab qilmaydi. Ular o'quvchilarni texnika elementlari bilan tanishtirish uchun foydalanadigan metodlardan deyarli farq qilmaydi. Albatta, bunda biofizik jismning o'ziga xos mazmuni hisobga olinishi, materialni chuqur bayon qilish usuli to'g'ri aniqlanishi, aniq dars orasiga jismlarning xususiyati va xossasini hisobga olinishi kerak.

Issiqlik hodisalari mavzularida issiqlikning inson hayotida eng muhim o'rin tutishi ko'rsatib beriladi. Bunda o'quvchilarning yosh xususiyatini hisobga olib, televizorda ko'rgan multfilmlari, qadimgi dunyo tarixi darslarida eshitgan olov haqidagi afsonalari eslatilib, insonning yashash uchun tabiatda olib borgan kurashlari qiziqarli holda o'tkaziladi. Darslikda ulardan ayrimli keltirilgan. „Olovni bo'ysundirish“ nafaqat qadimgi davrda, balki hozirgi zamonning eng baquvvat texnikasida ham asosiy harakatlantiruvchi kuch ekanligi ko'rsatib beriladi. Masalan: Kosmik uchiruvchi raketa, qit'alararo raketa, barcha kemalar, avtomobillar, traktorlar, poyezdlar va hokazo. Shunga ko'ra issiqlik hodisalarni o'rgaish, u bilan bog'liq mashinalarni ishlatish, sozlash va takomillashtirishda kerak bo'lishi uqtililadi. Undan keying mavzu „issiqlikni hosil qiluvchi va qabul qiluvchilar“ga o'tish bir tekisda boradi. Yerdagi issiqlikning asosiy manbai-Quyoshdir. Avtomobil dvigatelida yonib turgan benzinning ham asosi Quyosh ekanligi tushuntirib o'tiladi. Bu bilan birga issiqlikni faqatgina nimanidir yondirish orqali emas, balki ish bajarib ham hosil qilish mumkinligi isbotlab ko'rsatiladi. Bundan tangani jun materialga ishqalaganda isiganligi namoyish qilinadi. Bu bilan ishning energiyaga, energiyaning ishga aylanishi tushunchasi hosil qilinishiga zamin yaratiladi.

Hozirgi fan-texnikaning rivojlanishi bilim, amaliyot va tajriba o'zaro aloqani uzviy bog'lab borilishini taqozo qiladi. Fizika fani ishlab chiqarishdan ajratilgan holda o'qitilsa, o'quvchilar bu fanning nima uchun kerakligini, uni o'rganishning nima uchun zarurligini tushuna olmaydilar. O'quvchilarning faqatgina fizika faniga qiziqishini oshirishga qaratilmay, balki ularning texnik faolligini rivojlantirish, fan va texnika yutuqlarining zamonaviy ishlab chiqarishdagi o'rni va ahamiyatini ko'rsatish bilan ularning politexnik tayyorgarligini kuchaytirishni ham ko'zda tutadi. Jumladan, “Elektr sig'imi”, “Kondensatorlar”, “Yarim o'tkazgichli asboblar”, “Elektromagnit tebranishlar va to'lqinlar” mavzular o'tilayotgan vaqtda uning amaliy ahamiyatiga e'tibor berilishi, o'quvchilarning texnik ijodiy qobiliyatlarini rivojlanishiga ijobiy ta'sir qiladi.

O'quvchilar “Tokning magnit maydoni” masalasini o'rganishda organizm to'qimalarining magnit xossalari, to'qimalar ma'lum darajada suvga o'xshab diamagnit ekani, shuning uchun u tashqi magnit maydon ta'sirida umuman magnitlanmasligi haqida bilib oladilar. Biroq organizmda paramagnit moddalar, molekulalar, ionlar mavjud(organizmda ferramagnit zarralar bo'lmaydi). Magnit maydon ularga ta'sir etib, hayot faoliyatining ko'pgina jarayonlariga, masalan, hujayralarning holatiga, to'qimalarning nafas olishiga, odamning nerv sistemasiga va boshqalariga ta'sir etadi. Yana shuni ham nazarda tutish kerakki, o'tkazgichning qarshiligi kichik bo'lganda qarshilik qancha kam bo'lsa, tok kuchi shuncha katta bo'ladi. Bunga e'tiborsizlik qilingan hollarda og'ir oqibatlariga olib kelishi mumkin.

Fizika fanini o'qitish jarayonida o'quvchilarni bu fanga qiziqtirishni yana bir

usullaridan biri dars mobaynida fizik tajribalar tabiatdagi fizik jarayonlarni o'quvchilarning o'zlari fizikani o'rganishga qadar kuzatganlar. Lekin bu kuzatishlar natijasidabarcha o'quvchilar ularning mohiyati haqida to'g'ri xulosa chiqara olmaydilar, albatta. Bundan tashqari hamma o'quvchilar ham mavjud jarayonlarning barchasini ko'rmagan. Shu sababli maktab sharoiti doirasida sinfda maxsus tashkil etiladigan fizik tajribalarni ko'rsatish zaruriyati tug'iladi. Fizikadan to'g'ri tashkil etilib, namoyish qilingan va talqin etilgan tajribalar o'quvchida nafaqat asbobuskunalar tuzilishi, ishlashini o'rganib qolmay, balki ulardagi qonuniyatlarni payqashga ham imkoniyat tug'diradi. Fizik namoyishlar o'quvchilarga mazkur fanga bo'lgan qiziqishlarini ham orttiradi. Namoyishlar yordmida fizik tushunchalar, fizik kattaliklar va ularni o'lchash imkoniyatlari ko'rsatiladi. Ular so'ngra laboratoriya ishlarini bajarishda, masalalarni yechishda shakllanadi, rivojlanadi va bilimlari chuqurlashib boradi. Fizika darslarining boshida shunday tajribalarni namoyish etish kerakki, ular oddiy bo'lsa-da, boshlang'ich nuqta bo'lsin. Ularda ko'rgan hodisalar, keyinchalik boshqalarini tushuntirish uchun asos bo'ladi. Fizik kattaliklarning o'lchamlari(uzunlik, vaqt, massa, bosim, temperatura va h.k) aniqlanadi va ular orasidagi miqdoriy va sifat bog'lanishlari ko'rsatiladi(suyulik bosimining idish tubiga bosimi).

Namoyish tajribalarini o'rgatish jarayonida fizika qonunlaridan amalda foydalanishni ko'rsatishdan iborat(issiqlik mashinasi, termometr).

Keyingi namoyishlari bilimlarni chuqurlashtirishga qaratilgandir. Ularda ko'rsatiladigan tajribalarda bir nechta fizik qonun ishlatilgan murakkab jarayon ko'rsatiladi. Albatta, bunday tajribalar unchalik ko'p bo'lmay, o'quvchilarda ma'lum miqdorda bilimlar to'planganda o'tkaziladi. Ko'rsatiladigan namoyishlar soni ko'p bo'lmasligi kerak. Tajriba o'qituvchi tushuntirishiga ko'makchi sifatida berilgani ma'qul. Ishlatiladigan asboblarda sodda va turli xil bo'lib, o'quvchi diqqatini charchatmasligi kerak. Eng muhimi namoyish qisqa muddatli bo'lishi talab qilinadi. Shuningdek, uyga bajarish uchun qiziqarli tajribalar ham berish mumkin.

1. Yupqa devorli stakan olib, issiq suvga botirib qo'ying. So'ngra ochiq tomoni bilan sovuq suvga to'nkarib qo'ying. Birozdan so'ng stakan ichida sovuq suv ko'tariladi. Nimaga?

2. Ikkita stakan oling. Ularning og'zi bilan bir xil diametrdagi rezina halqa qirqib oling. Birinchi stakan og'ziga rezina halqani qo'ying. Kichik qog'oz bo'lagini stakan ichiga tashlab yoqib yuboring. Darhol ikkinchi stakan og'zini rezina halqa ustiga qo'yib yoping. 1-2 s dan so'ng yuqoridagi stakanni ko'tarsangiz pastkisi ham qo'shib ko'tariladi. Nega? 3. Qalinroq karton qog'ozdan quticha yasang. Uning ichiga suv quyib qizigan elektr plitkasiga qo'ying. Suv isiydi va nihoyat qaynaydi. Quti butun qoladi. Sababini tushuntiring.

Fizikadan ekskursiyalar o'tkazish metodikasi bir qator tadqiqotlarda o'z aksini topadi, biroq ularda kuzatish obyekti sifatida asosan qishloq xo'jalik va sanoat

korxonalarini xizmat qiladi. O'quvchilarning fizikadan olgan bilimlari sifatini yaxshilash ularni kasbga yo'llash uchun uyushtiriladigan ekskursiyalar yaxshi natija beradi.

Masalan, kosmonavtikaga oid ko'rgazmalari bor muzeylar, meditsina texnikasiga oid poliklinikalarda kuzatuvlar. Maqsad- o'quvchilarni elektr tokining organizmga biologik ta'sirini ko'rsatish va uning meditsina asboblari bemozlarni diagnostika qilish va davolashda qo'llanilishini o'quvchilarga ko'rsatish. Ekskursiya poliklinikaning fizioterapevtik kabinetida o'tkaziladi.

Ekskursiyalarni mavzuviy, fikriy-ilmiy sayohat usulida ham olib borish mumkin. Buning uchun ko'hna Samarqand imoratlari, rasadxona rasmlari tushirilgan otkritkadan foydalaniladi. Fizika xonasida epidiaskop ishlasa, ularni kattalashtirib, ekranga tushirish mumkin. O'quvchilar ilmiy sayohat ishtirokchilari, o'qituvchi esa „gid“ vazifasini bajaradi.

Tanishtirish temuriylar davrida qurilgan tarixiy obidalar bilan boshlab, rasadxona rasmiga kelib to'xtaydi. Rasadxonani qurish uchun loyihaning boshida Ulug'bekning o'zi turganligini, o'sha davrning buyuk matematigi G'iyosiddin Jamshid loyihalarga tuzatish kiritganligini, astronomik asboblarni tayyorlash va qurishda katta hissa qo'shganligi aytiladi. Bu tadqiqotlarning davomi sifatida teleskoplar yaratilishi va hozirgi zamondagi radioteleskop, rentgen teleskoplari va kosmosga chiqarilgan teleskoplar haqida tushuncha beradi.

O'quvchilarni fizika faniga qiziqtirishda har xil fizikaga oid topishmoqlardan ham foydalanish mumkin. Topishmoqlar aql-zakovat, fikr o'tkirligining sinov quroli hisoblanadi. Chunki u o'quvchini hozirjavoblikka o'rgatadi. Dars jarayonida ruhiy charchashning oldini oladi. O'qituvchiga esa o'quvchilarning zehni dunyoni o'rganishga, ularni individual xususiyatlarini aniqlashga yordam beradi.

Ko'zga ko'rinmas Qo'lga ilinmas,
Shusiz hech joyda, Hayot ham bo'lmas. (Havo)
Kerak har bir xonadonga,
Issiqligi huzur jonga.
Televizor, xolodelnik,
U bor bo'lsa jonli tirik. (Elektr toki)
Nur sochadi har yoqqa,
Kerakmas unga gugurt.
U bilan ravshandir yurt. (Lampochka)
Ming chiroqda yuzta son, O'lchar yuza va tomon. (Santimetr)

Fizikadan o'tkaziladigan to'garaklar o'quvchilarning nazariy va amaliy bilimlarini chuqurlashtirish eng qulay shakli bo'lib, unda fizikaga, uning amaliy tadbirlariga qiziqish mayllarini ixtiyoriy ravishda jalb qilinadi. To'garaklarning muvaffaqiyati uni to'g'ri tashkil qilishda to'garakdan maqsad o'quvchilarni fizik

tajriba o'tkazishda mustaqillik, tashabbuskorlik va faolligini oshirishdir. To'garak mashg'ulotlarini qiziqarli qilib tashkil etish maqsadida ba'zi hollarda o'quvchilar dars bilan kamroq band bo'lgan kunlarida, ularning o'tkazish usul va metodlarini juda tez o'zgartirib turish maqsadga muvofiqdir.

Maktabning ta'limiy muhitiga fizika xonasining jihozlanganligi, kompyuter sinflarining mavjudligi kiradi. Hududda ishlab chiqarish korxonasi, muzeylarning borligi va ularga ilmiy sayohatlar uyushtirish imkoniyatlari esa maktabdan tashqari ta'lim muhiti hisoblanadi. O'quvchilarning ta'limga bo'lgan ehtiyojini o'rganishning usullaridan biri - bu kuzatishdir. Kuzatish ishlari darsda va darsdan tashqari paytlarda ham o'tkazilishi kerak. Bunda qaysi mavzudagi kitoblarni ko'proq o'qishi, qanday to'garakka qatnashi, sayohatga chiqqanda, muzeyga borganida, ko'rgazmalarda bo'lganida o'zini tutishi ham hisobga olinadi.

Maktabda o'quvchilarni fizika faniga qiziqtirishda tatbiqiy fizika hamda fanlararo bog'lanishlarning ahamiyati katta. Shu munosabat bilan maktabda, biofizika elementlarining kiritilishi eng avval o'quvchilarda fizika predmetini chuqur va keng o'rganishlarida zamin yaratadi, fanlararo aloqadorlikni jonlanatiradi, o'quvchilarda kasbga bo'lgan qiziqishlarini oshirib, uni ongli ravishda tanlash imkoniyatlarini yaratadi, politexnik ta'limni yanada kuchaytiradi. Fizika o'qituvchisi fizikaga oid materiallarni boshqa predmetlar bilan bog'lagan holda o'tishlari uchun ular eng avval, o'rta maktabda o'tiladigan predmetlarning programmalari bilan yaxshi tanishishlari hamda taklif etilayotgan materiallar mazmuni, maqsadi va vazifalarini yaxshi bilishlari zarur. Shuningdek, fizika o'qituvchisi o'quvchilarning fizika predmeti materiallaridan olgan bilim va ko'nikmalarini qaysi biri qachon va qaysi temani o'tishda boshqa predmet-o'qituvchisiga yordam berishini, xuddi shuningdek, fizik materiallar amaliyotda qayerda, qancha miqdorda qo'llanishini ham bilishlari kerak. Aks holda fizika o'qituvchisi boshqa predmet o'qituvchilariga yaqindan yordam bera olmaydi va o'z predmetini ham boshqa fan materiallariga, ayniqsa, amaliyot bilan bog'lagan holda tushuntira olmaydilar. Biofizika elementlarini fizika kursida hamda boshqa predmet materiallari bilan bog'lab o'qitish va tarbiya jarayonida, samaradorligini oshirishda, o'quvchilarning har tomonlama to'liq va mustahkam bilim olishlariga katta imkoniyat yaratib beradi.

Keyingi yillarda qayta tiklanuvchi energiya manbalari (shamol, quyosh, geothermal, biomassa) haqida ommaviy axborot vositalari, ilmiy-amaliy konferensiyalarda ko'plab yangi ma'lumotlar e'lon qilinmoqda. Shu bois, bu ma'lumotlarni ta'lim jarayoniga, xususan, fizika darslariga tatbiq qilish, energiya, energetikaning eng so'nggi zamonaviy fizik va texnologik asoslarini o'quvchilarga yetkazish, ularda bu soha bo'yicha yetarlicha bilim, ko'nikma va malakalarni hosil qilish muhim ahamiyatga ega.

Ilm-fanga, ustoz-murabbiylarga e'tibor qaratilayotgan shunday zamonda biz

o'qituvchilardan yangi zamonga yangicha qarash, yondoshish va texnologiyalar bilan o'quvchilar ongiga, qalbiga kirib borish talab qilinarkan, shu oliy maqsad ila qadam tashlashimiz lozimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ya.I.Perelman "Qiziqarli fizika" Toshkent-2009y 6 bet.
2. K.Tursunmetov "Ma'lumotnoma" Toshkent-2007 y 13-15 betlar .
3. M.Yo'ldashev "8-sinf fizika darslik" Toshkent - 2010 105-122 betlar.
4. L.S.Landsberg "Optika". Moskva. 1976 y. 5-bet

MASTERING ENGLISH GRAMMAR WITH
CUTTING-EDGE TECHNOLOGIES

Xurshidabonu Tilovatova

Karshi State University Philology and Language

Teaching (English) The course is a 3rd year student

.tilovatovabonu@gmail.com

+998908770301

Annotatsiya: Ushbu maqola ingliz tili grammatikasini o'rganish jarayoniga yangi texnologiyalarning integratsiyasini o'rganadi. Tez texnologik taraqqiyot bilan tavsiflangan asrda til o'rgatishning an'anaviy usullari innovatsion vositalar va platformalar bilan to'ldirilib, takomillashtirilmoqda. Mobil ilovalar, onlayn kurslar, grammatikani tekshirish vositalari, til o'rganish o'yinlari, virtual repetitorlik xizmatlari va ijtimoiy til o'rganish jamoalarini har tomonlama tekshirish orqali ushbu maqola o'quvchilar uchun mavjud bo'lgan turli xil texnologik resurslarni yoritadi. Ushbu vositalardan foydalangan holda, o'quvchilar ingliz tili grammatikasi bilan dinamik, interaktiv va shaxsiylashtirilgan usullarda shug'ullanishlari mumkin, shu bilan ularning tilni o'zlashtirishni tezlashtiradi va grammatika tushunchalarini chuqurroq tushunishga yordam beradi. Texnologiya rivojlanishda davom etar ekan, ingliz tili grammatikasini o'qitishning kelajagi innovatsiyalar va o'zgarishlar uchun ulkan salohiyatga ega.

Abstract: This article explores the integration of new technologies into the process of learning English grammar. In an age characterized by rapid technological advancement, traditional methods of language instruction are being augmented and enhanced by innovative tools and platforms. Through a comprehensive examination of mobile apps, online courses, grammar checking tools, language learning games, virtual tutoring services, and social language learning communities, this article illuminates the diverse array of technological resources available to learners. By leveraging these tools, learners can engage with English grammar in dynamic, interactive, and personalized ways, thereby accelerating their language acquisition and fostering a deeper understanding of grammar concepts. As technology continues to evolve, the future of English grammar instruction holds tremendous potential for innovation and transformation.

Аннотация: В данной статье исследуется интеграция новых технологий в процесс изучения грамматики английского языка. В эпоху быстрого технологического прогресса традиционные методы обучения языку дополняются и совершенствуются инновационными инструментами и платформами. Благодаря всестороннему исследованию мобильных приложений, онлайн-курсов, инструментов проверки грамматики, игр для изучения языка,

услуг виртуального репетиторства и социальных сообществ по изучению языка эта статья освещает разнообразный спектр технологических ресурсов, доступных учащимся. Используя эти инструменты, учащиеся могут изучать грамматику английского языка динамично, интерактивно и персонализированно, тем самым ускоряя овладение языком и способствуя более глубокому пониманию грамматических концепций. Поскольку технологии продолжают развиваться, будущее преподавания грамматики английского языка несет в себе огромный потенциал для инноваций и преобразований.

Kalit so'zlar: Ingliz tili grammatikasi, yangi texnologiyalar, til o'rganish, mobil ilovalar, onlayn kurslar, grammatikani tekshirish vositalari, til o'rganish o'yinlari, virtual repetitorlik xizmatlari, ijtimoiy til o'rganish jamoalari, texnologiya integratsiyasi, tilni o'zlashtirish, innovatsiyalar, transformatsiya

Keywords: English grammar, new technologies, language learning, mobile apps, online courses, grammar checking tools, language learning games, virtual tutoring services, social language learning communities, technology integration, language acquisition, innovation, Transformation

Ключевые слова: грамматика английского языка, новые технологии, изучение языка, мобильные приложения, онлайн-курсы, инструменты проверки грамматики, игры для изучения языка, услуги виртуального репетитора, социальные сообщества по изучению языка, интеграция технологий, овладение языком, инновации, трансформация.

INTRODUCTION

In an era dominated by technology, the landscape of language learning has undergone a profound transformation. With the advent of innovative tools and platforms, mastering English grammar has become more accessible, engaging, and effective than ever before. This article explores the intersection of language learning and technology, focusing on how learners can leverage cutting-edge resources to enhance their understanding of English grammar. From interactive mobile apps to virtual tutoring services, a plethora of technological solutions exists to cater to learners of all levels and preferences. By embracing these new technologies, learners can embark on a dynamic journey towards fluency, empowered by the tools of the digital age.

ANALYZES AND RESULTS

In today's digital age, learning English grammar has become more accessible and engaging than ever before, thanks to advancements in technology. Whether you're a beginner or looking to refine your language skills, integrating new technologies into your learning routine can enhance comprehension, retention, and overall fluency. Here's how you can leverage these tools to master English grammar effectively:

Interactive Mobile Apps: Mobile applications offer a convenient way to practice

grammar on the go. Apps like Duolingo, Grammarly, and Babbel provide interactive exercises, quizzes, and personalized feedback tailored to your skill level. With features like speech recognition and gamified learning experiences, these apps make grammar practice engaging and enjoyable.

Online Grammar Courses: Platforms like Coursera, Udemy, and edX offer a wide range of online grammar courses taught by language experts. These courses often include video lectures, interactive assignments, and community forums for discussion and feedback. Whether you're focusing on specific grammar topics or comprehensive language skills, online courses provide flexibility and accessibility to learners worldwide. **Grammar Checking Tools:** Writing is a crucial component of language learning, and grammar checking tools can help you refine your written English. Tools like Grammarly, Hemingway Editor, and ProWritingAid offer real-time grammar and style suggestions as you write. By identifying and correcting errors in your writing, these tools help reinforce grammar rules and improve overall writing proficiency. **Language Learning Platforms:** Dedicated language learning platforms such as Rosetta Stone and FluentU provide immersive experiences that integrate grammar lessons with authentic language use. Through multimedia content like videos, audio recordings, and interactive exercises, these platforms simulate real-world language scenarios, allowing learners to practice grammar in context.

Virtual Tutoring Services: For personalized guidance and support, virtual tutoring services connect learners with qualified language tutors for one-on-one instruction. Platforms like iTalki, Preply, and Verbling offer flexible scheduling and customized lesson plans tailored to your learning objectives. With the guidance of a tutor, you can receive targeted feedback, address specific grammar issues, and accelerate your language learning progress. **Language Learning Games:** Gamification has proven to be an effective strategy for engaging learners and reinforcing language skills. Language learning games like Quizlet, Kahoot, and WordUp! offer interactive and entertaining ways to practice grammar concepts through quizzes, puzzles, and challenges. By turning grammar practice into a fun and competitive activity, these games motivate learners to actively engage with language content.

Social Language Learning Communities: Joining online communities and forums dedicated to language learning can provide valuable support and encouragement. Platforms like Reddit's r/languagelearning and language-specific Facebook groups allow learners to connect with peers, exchange language tips, and seek advice from native speakers. Engaging with a community of fellow learners fosters a sense of camaraderie and accountability, motivating you to stay consistent with your grammar practice. By incorporating these innovative technologies into your English grammar learning journey, you can make the process more dynamic, interactive, and effective. Whether you prefer mobile apps, online courses, or virtual tutoring, there's a wealth of

resources available to suit your learning style and preferences. Embrace the power of technology and take your English grammar skills to new heights!

LITERATURE ANALYSIS

"English Grammar in Use" by Raymond Murphy: Structured Learning: Follow the progressive structure of this book, starting with basic grammar concepts and gradually advancing to more complex topics.

Practice Exercises: Utilize the numerous exercises provided in each unit to reinforce grammar rules and concepts. Visual Aids, benefit from the clear explanations and visual aids, such as diagrams and illustrations, to enhance comprehension. Examples and Context: Learn grammar in context with the plentiful examples and contextual explanations provided throughout the book.

"Understanding and Using English Grammar" by Betty Schramper Azar: Comprehensive Reference: Utilize this book as a comprehensive reference guide, covering all aspects of English grammar. Interactive Features: Take advantage of the supplementary online resources, including interactive exercises and quizzes, to reinforce learning. Feedback Mechanism: Access answer keys and online forums to check answers, receive feedback, and engage with instructors or peers.. Progressive Difficulty: Progress through the book's units, which are designed to gradually increase in difficulty, allowing for a step-by-step approach to grammar mastery.

"The Elements of Style" by William Strunk Jr. and E.B. White:

Clear and Concise Writing: Learn the principles of clear and concise writing through this timeless guidebook. Rules and Guidelines: Familiarize yourself with essential grammar rules, style guidelines, and principles of effective communication. Examples and Illustrations: Benefit from the numerous examples and illustrations that demonstrate proper grammar usage and writing style.

Practical Advice: Apply the practical advice provided in the book to improve your writing skills and refine your understanding of English grammar.

"Grammar Girl's Quick and Dirty Tips for Better Writing" by Mignon Fogarty: Bite-sized Grammar Tips: Learn grammar concepts in short, easy-to-digest segments, perfect for quick reference and on-the-go learning. Engaging Writing Style: Enjoy the author's engaging and accessible writing style, which makes complex grammar concepts easy to understand. Modern Examples: Explore grammar rules with contemporary examples and references, making the content relevant and relatable. Memorable Mnemonics: Remember grammar rules and tips with the help of memorable mnemonics and clever wordplay.

By exploring these tips from renowned grammar books and their respective authors, learners can enhance their understanding of English grammar and improve their writing skills effectively.

CONCLUSION

As we conclude our exploration of learning English grammar with new technologies, it's evident that the digital landscape offers boundless opportunities for language learners. From mobile apps to online courses, grammar checking tools to language learning games, technology has revolutionized the way we approach language acquisition. By harnessing the power of these innovative resources, learners can engage with English grammar in interactive, personalized, and immersive ways, accelerating their progress and fostering a deeper understanding of the language. As technology continues to evolve, so too will the possibilities for language learning, shaping the future of English grammar instruction in exciting and transformative ways.

REFERENCES

1. "USING EASY METHODS TO TEACH ENGLISH GRAMMAR" Tilovatova Xurshidabonu <https://www.bjisrd.com/index.php/bjisrd/article/view/1984>.
2. "Grammar.Girl's Quick and Dirty Tips for Better Writing" by Mignon Fogarty
3. EXAMPLES AND THEIR STUDY OF HOW TO OFFER EFFECTIVE METHODS OF LEARNING A NEW LANGUAGE AND HOW TO MAKE THE MOST OF THEM Xurshidabonu Tilovatova
4. Chomsky, N. (1956). Three Models for the Description of Language. Transactions on Information Theory 2:113–1243. "English Grammar in Use" by Raymond Murphy
5. Nunan, D. (1998) Teaching Grammar in Context ELT Journal Volume 52/2 April 1998 © Oxford University Press 1998 101.
4. "Woe is I: The Grammarphobe's Guide to Better English in Plain English" by Patricia T. O'Conner
6. Brown, H.D. (1980). Principles of Language Learning and Teaching. Englewood Cliffs, NJ: Prentice Hall. "The Blue Book of Grammar and Punctuation" by Jane Straus
7. Azar, B. (2007). Grammar-Based Teaching: A Practitioner's Perspective. TESL-EJ. 11(2). 1-12. Retrieved from <http://www.tesl-ej.org/ej42/a1.pdf>
8. Problems, Errors and Their Analysis Faced by Young People Learning a Foreign Language. Khurshidabanu Tilovatova <https://openaccessjournals.eu/index.php/ijdpp/article/view/2360>
10. Clark, R. 1987. Language Teaching Techniques. Brattleboro, VT: Pro Lingua Associates,
11. Cook, G. (2001). Discourse. Oxford: Oxford University press. David. C. (1995)
8. Chomsky, N. (1956). Three Models for the Description of Language. Transactions on Information Theory 2:113–124.

**QUR’ONI KARIM TAFSIRLARNING TURLARI VA
TAFSIR QILISH USHLBLARI**

Abdumalikova Muslima

O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi talabasi

Telefon raqami: 97 771 39 82

Ilmiy rahbar: M.M.Agzamova

Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori PhD,

O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi dotsent v.b.

Annotatsiya: Maqolada Qur’oni karimning tafsir qilinishi va uning uslublari to‘g‘risida gap boradi. Dastlabki davr tafsirlari va ularni turlari qanday bo‘lganligi, shu bilan birgalikda, Qur’oni karimning turli sohalarda qilingan tafsirlari bilan batafsil tanishib chiqish mumkin.

Kalit so‘z: Tafsir, ishoriy tafsirlar, aqliy tafsirlar, naqliy tafsirlar, nahviy tafsirlar, g‘aribul Qur’on, fihiy tafsirlar, mufassir.

Asrlar davomida tafsir va Qur’on ilmlari rivojlanib borar ekan, kitoblar ta’lif etilar ekan, tabiiyki, tafsirning turlari ham ortib bordi. Ushbu ilm ham boshqa islom ilmlari kabi mukammallashib tarmoqlandi. Ular orasidagi farq va o‘xlashliklar o‘rganildi. Shundan kelib chiqib, tafsir dastlab uni tahsil qilishga ko‘ra ikkiga bo‘lindi: “At-tafsir bil ma’sur” – naql asosidagi tafsir va “At-tafsir bir ray” – aql va ijthod asosidagi tafsir. Ammo, mavjud tafsir kitoblari tahlil qilinsa, ular yoki naql, ya’ni hadis, sahobalar rivoyatlari asosida yoki aqliy ilmlar asosida yozilgani ayon bo‘ladi. Biroq naqliy tafsirlarda faqatgina naqliy ma’lumotlar, aqliylarida esa, faqatgina aqliy ma’lumotlar bo‘ladi, degan qoida mavjud emas. Shu bois ikkalasi aralashgan kitoblarning topilishi tabiiy hol. Misol uchun, naqliy tafsirlardagi rivoyatlarning ayrimlarini afzalroq ekanini ajratish va tarjih qilishda aqliy ilmlarga tayanish holatlari kuzatiladi. Buning aksi, aqliy tafsirlarda naqliy rivoyatlar ham uchrab turadi. Biroq dalillarning aksariyat qismi aqliy bo‘lgani sababli ular aqliy tafsirlar qatorida ko‘riladi. Olimlar Qur’on oyatlarini qaysi jihatdan, qaysi e’tibordan sharhlashga kirishganliklariga qarab tafsirni ma’lum klassifikatsiyalarga bo‘linganligini, tafsir qilishda turli ushlblardan foydalanilganini ko‘rishimiz mumkin.

Tafsir ilmini olimlar uch qismga bo‘lib o‘rganganlar:

Birinchi qism, naqliy tafsir-biror oyatning ma’nosini Qur’onda va sunnatda kelgan yoki sahobalarning so‘zlarida yoki tobeinlarning sahobalardan qilgan rivoyatlari asosida tafsir qilishdir. Ma’sur bilan tafsir qilish eng afzal va eng a’losi bo‘lib, bunda mufassir Qur’onni Alloh taoloning kalomi bilan tafsir qiladi, chunki Alloh taolo O‘zi kalomining ma’nolarini eng yaxshi biluvchi Zotdir yoki Qur’onni

Payg‘ambarimiz(s.a.v) kalomi bilan tafsir qiladi. Chunki Rasululloh sollallohu alayhi vasallam Alloh taoloning kalomini bayon qiluvchi zotdir. Yoki sahobalarning qavllari bilan tafsir qiladi, chunki ular nuzul vaqtiga shohiddirlar va o‘sha zamonda hozir bo‘lganlar, ular ahli lisondirlar. Nuzul paytida o‘zlari ko‘rgan hamda guvoh bo‘lgan holat va alomatlarni boshqalardan ko‘ra yaxshiroq biladilar. [1:269]

“At-tafsir bil ma’sur” uslubida yozilgan tafsirlarning mashhurlari quyidagilar: Imom Muhammad ibn Jarir Tobariyning «Jomi’ul bayon fiy tafsiril Qur’on», imom Abu Muhammad Husayn ibn Mas’ud ibn Muhammad Bag‘aviyning «Maolimut-tanzil», Imom Imoduddin Ismoil ibn Kasirning «Tafsirul Qur’onul azim», imom Jaloliddin Suyutiyning «Ad-durul mansur fiy tafsir bil ma’sur» kitoblari.

Ikkinchi qism – «Attafsir bir-ray». Bu qismda mufassir o‘z fikri va ijtihodi ila tafsir qiladi va u ikkiga, joiz va g‘ayri joizga bo‘linadi. Joiz bo‘lgan ray bilan tafsir qilishda mufassir ishonchli masdarlarga suyangan holda jaholat va zalolatdan uzoqda bo‘lib tafsir qiladi. Joiz bo‘lmagan qismda esa mufassir jaholat, bid’at va zalolat bilan tafsir qiladi, shuning uchun ham, barcha allomalar bu navdagi tafsirni man qilganlar. Bu turdagi aqliy tafsirlar “Botiniy tafsirlar” ham deb nomlanadi.

Joiz bo‘lgan ray bilan qilingan tafsirlardan mashxurlarini eslab o‘taylik: imom Abu Abdulloh Muhammad ibn Umar ibn Husayn Faxridin Roziyning «Mafotihul g‘ayb», imom Nasridin Abdulloh ibn Umar ibn Muhammad ibn Ali Bayzaviyning «Anvarut-tanzil va asrorut-ta’viyl», imom Abul Barakot Abdulloh ibn Axmad ibn Mahmud Nasafiyning «Madorukut-tanzil va haqoiqut-ta’viyl» kitoblari. [2:57,58]

O‘z o‘rnida aqliy tafsirlarning ma’qul ko‘rilganni bir necha yo‘nalishlarni qamrab oladi:

1. Lug‘aviy tafsirlar. Ularda nahv va balog‘at ilmlari, tarkib va uslublariga ko‘ra oyat ma’nolari keng yoritilgan bo‘ladi. Ba’zilar uni Qur’onda kelgan so‘zlarning arab tili nuqati nazaridan izohi, deb ham nomlaganlar.

Lug‘aviy tafsir ham o‘z navbatida g‘aribul Qur’on, nahv, balog‘at kabi turlarga bo‘linadi:

A) G‘aribul Qur’on. Ushbu atamani Qur’ondagi ayrim tushunilishi qiyin bo‘lgan so‘zlar deb izohlash mumkin. Chunki mazkur tafsir turida oyatlardagi ayrim so‘zlar birdan tushunilmaydi, balki chuqurroq tadqiq va tahlil qilinganidan so‘ng anglash mumkin bo‘ladi. Shu nuqtai nazardan g‘aribul Qur’onni ayrim olim insonlar tushunib, ayrimlari tushunmasliklari mumkin. Imom Suyuti y aytadilar: «Sahobalar arab bo‘lib, arab tilining nozik qirralarini bilishlariga qaramay o‘zlari bilmagan so‘zlar borasida biror narsa deyishdan tiyilganlar».

B) Nahviy tafsirlar. Ba’zi olimlar nahv, ya’ni tilshunoslikning sintaksis qismi bilan bog‘liq qoidalarni tatbiq qilib, tafsir yozganlar. Unda Qur’on kalimalarini nahv maktablariga monand tarzda sharhlaganlar va o‘zlari ishlatadigan nahv qoidalariga oyatlardan dalillar keltirganlar.

D) Balogʻat tafsirlari. Bu turdagi tafsirlarda oyatlarning balogʻati, bayon va moʻjizakorligi ochib berilgan boʻladi. Maʼlumki, Qurʼoni karim yetuk arab tilida, soʻzlarining moʻjizakorligi, jumllarining maftunkorligi bilan alohida ajralib turadi.

1. Fiqhiy tafsirlar. Maʼlumki, fiqh ilmi shariatning amaliy masalalari bilan bogʻliq boʻlib, unda islom manbalarida kelgan hukmlar bayon qilingan boʻladi. Shundan kelib chiqib, fiqhiy tafsirlarda ham fiqh hukmlari, ularning istinbot qilish yoʻllari keng yoritiladi va boshqa mazhablarga raddiyalar beriladi. Fiqhiy munozaralar tobeinlar davrida ham keng tarqalib, faqihlar orasida shu darajada kuchayib ketdiki, hijriy birinchi asr oxiri va ikkinchi asr boshlarida paydo boʻlgan mazhablarning bahs-munozara markaziga aylandi. Har bir mazhab davomchilari qoidalaridan kelib chiqib, oʻz qarashlarini isbotlashga kirishdilar. Shu tarzda fiqhiy mazhab qoidalariga binoan tafsirlar yozilishi boshlandi. Natijada tafsir bilan fiqh kitoblari oʻrtasida katta farq ham qolmadigan darajaga yetdi. Biroq bilish lozimki, ushbu mazhablarning aqidalari va istinbot qoidalari toʻgʻri boʻlgani toʻrtta hisoblanadi. Bular, hanafiylar, molikiylar, shofiiylar va hanbaliylardir. Hanafiy mazhabidagi fiqhiy tafsir kitoblariga misol sifatida “Al-Jassos” nomi bilan mashhur boʻlgan Abu Bakr ar-Roziy (vaf.270 h.y.)ning “Tafsir ahkomul Qurʼon” asarini olish mumkin.

2. Aqidaviy tafsirlar. Ularning xususiyati shundaki, aqidaviy oyatlar kengroq sharhlanadi, ayrim falsafiy yoʻnalish va oqimlarga raddiya beriladi. Shuningdek ularda tavhid, paygʻambarlarning gunohdan ozodligi, ilohiy adolat, imomat, qayta tirilish, hidoyat va zalolat, ularning oʻrtalaridagi munosabatlarning inson ixtiyori va erkinligiga bogʻliqligi, Allohni moddiy koʻz bilan koʻrib boʻlmaslik, mutashobih oyatlar va shu singari boshqa masalalar keng yoritilgan boʻladi. Bularga misol: Abu Mansur al-Moturidiyning “Taʼvilotil Qurʼon”, al-Faxr ar-Roziyning “Mafotihul gʻayb” asarlari.

3. Ijtimoiy tafsirlar. Bunday tafsir turlarida ijtimoiy masalalar (oila, iqtisod, siyosat va boshqalar) bilan bogʻliq oyatlarga koʻproq eʼtibor beriladi. Bunda Qurʼon vositasida, ijtimoiy masalalarga oid oyatlarni sharhlash bilan, insonlarning aqidalari toʻgʻrilanishi, oilaviy va ijtimoiy holatlari yaxshilanishi maqsad qilib olinadi. Bu turga misol Ahmad Mustafo al-Marogʻiyning “Tafsirul Marogʻiy” asaridir.

4. Ilmiy tafsirlar. Bunday tafsir turlarida mufassir olim oyatlar bilan tajribaviy ilm oʻrtasidagi bogʻliqlikni Qurʼonning moʻjizakorligi asosida ochishga harakat qiladi va uni har bir zamon va makonga munosibligini yoritib beradi. Baʼzilar uni Rosululloh (s.a.v.) davrida tushunilish imkoniyati boʻlmagan oyatlar maʼnolarini borliq (tabiiy) ilmlar yordamida ochib berish, deya taʼriflagan.

5. Ishoriy tafsirlar. Bunday tafsirlarda mufassir zohir boʻlib turgan maʼno oʻrniga oʻziga bilingan ishoriy, yaʼni hammaga ham maʼlum boʻlavermaydigan hamda ishora qilingan ichki maʼno asosida oyatlarni sharhlaydi. Biroq bu kabi kitoblarda oyatlarning zohiriy bilan ishoriy maʼnolari bir-biriga aslo zid boʻlmaydi, ularni bogʻlash imkoniyati mavjud boʻladi, zohiriy maʼnolar aslo inkor qilinmaydi.

Olimlar ishoriy tafsirlarning ruxsat etilishiga bir qancha shartlarni qo‘yganlar. Ulardan birinchisi, ishoriy tafsirlar aqlga ham shariatga ham qarshi bo‘lmasligi; ikkinchisi, ishoriy ma’nolar Qur’onning zohiriy matniga zid bo‘lmasligi; uchinchi, oyatdan ko‘zlangan ma’no faqatgina botin (ichki)ning o‘zi, zohiri emas, deb bilmasligi; to‘rtinchisi, arab tili taqozo etayotgan ma’noga teskari bo‘lmaslik. Al-Olusiyning “Ruhul maoni”, An-Naysaburiyning “G‘aroibul Qur’on va rag‘oibul Furqon” asarlari ishoriy tafsir turiga kiradi.

Tafsir ilmida Qur’onni tahsil qilinishiga ko‘ra uchinchi qism-«Tafsiri ishoriy» hisoblanadi. Bu qismda mufassir oyatning zohiriy ma’nosiga qaramay, uning maxfiy ishoralari taqozosi bilan tafsir qiladi. Bu faqat suluk va tasavvuf arboblarning uslubidir. Bu qismga doir tafsirlarning mashhurlari quyidagilar: imom Nizomiddin Hasan ibn Muhammad Husayn Xurosoniy Naysoburiyning «G‘aroibul Qur’on va rag‘oibul Furqon», imom Sheroziyning «Aroisul bayon fi haqiqul Qur’on» kitoblari. [2:57,58]

Qur’onni tafsir qilishda mufassirlar turli uslublardan foydalanishgan. Bular:

1. Tahliliy tafsir. Tahliliy tafsirda barcha sura va oyatlar sharhi Qur’on kitoblari tartibi bo‘yicha ketma-ketlikda beriladi. Doktor Zohir al-Almaiy ham uni Qur’onda berilgan tartib bo‘yicha oyatlarni tafsir qilish deb izohlaydi. U tafsiliy tafsir deb ham nomlanadi.

2. Ijmoliy tafsirlar. Tafsirning ijmoliy uslubida oyatlar Qur’on kitoblari tartibida berilib, faqatgina ma’nolari umumiy tarzda, maqsadni izhor qilib, oyatlardagi so‘zlarni matn va tafsir bilan bog‘lab beradi. Ba’zilar uni “oyatlarni ixcham va umumiy tarzda sharhlash hamda bir yoki bir nechta oyatlar ma’nolarini batafsil sharhlamalik”, deb aytadilar. Ushbu tafsirda oyatlar so‘zma-so‘z sharhlanmaydi, ba’zi o‘rinlarda nozil bo‘lish sabablari kabilar yoritiladi. Shu jihatdan ham ushbu tafsir ma’naviy tarjimaga o‘xshab ketadi.

3. Muqorin tafsirlar (bir-biriga yaqin va bir mavzu doirasidagi tafsirlar). Unda mufassir bir yoki bir nechta oyatni sharhlash asnosida mavzuga taalluqli bo‘lgan boshqa oyatlar, hadislar, sahoba, tobein yoki mufassirlar so‘zlari, boshqa samoviy kitoblardagi dalillarni keltiradi, ularni taqqoslab, afzalini noqisrog‘idan ajratib ko‘rsatib beradi. Uni ba’zi olimlar “bir oyat doirasidagi bir nechta dalillarni keltirish va ulardan yorqinrog‘ini ajratib olish” deb ham nomlashgan.

4. Mavzuiy tafsirlar. Mavzuiy tafsirlarda oyat sharhlari Qur’on kitobi tartibiga ko‘ra emas, balki biror bir aniq mavzu doirasida beriladi. Shu tarzda oyatlar jamlanib, sharhlanadi, hukm va ma’nolar keltiriladi hamda mavzu doirasidagi mazmun atroflicha yoritib beriladi.

Har bir asrda bir mavzu doirasida oyatlarni sharhlab, kitob yozgan olimlar bo‘lgan. XIV/XX asrda bu sohada ilmiy atamalogiya (mustalah) paydo bo‘ldi va buning asosi al-Azhar universitetida tashkil topdi. Biroq uning asoslari qadimdan

bo'lgan va bu yo'nalishda quyidagi tartibda o'z faoliyatlarini amalga oshirganlar:

Birinchisi, Qur'onni Qur'on bilan sharhlash bo'lib, unda bir mavzu doirasidagi oyatlar jamlanadi, bir oyat ma'nosi boshqa bir oyat yordamida ochib beriladi. Mavzuiy tafsirning ushbu turi eng maqbul uslublardan biri sanaladi. Bu uslubdan foydalanish eng maqbuli hisoblanib, undan bugungi kungacha foydalanib kelishadi.

Ikkinchisi ahkom oyatlari sharhlanadi. Bu ko'rinishda bir guruh yetakchi mufassir olimlar Qur'ondagi faqatgina hukmiy, ya'ni fiqhiy oyatlarni sharhlashga kirishganlar. U ham mavzuiy uslub hisoblanadi.

Uchinchisi, ashboh va nazoir (o'xshash va yaqin so'zlar). Mavzuiy tafsirning ushbu turida Qur'onda kelgan bir so'z olinib, uning turli joylarda kelgan ma'nolari ochib beriladi. So'zlarning ma'nolari izohlanishi nuqtai nazaridan mazkur tafsir turi lug'aviy tafsirlardan sanaladi. Biroq uslubiy jihatdan u mavzuiy tafsirdir.

To'rtinchisi, tadqiqot tarzida yozilgan tafsirlar. Oldingi olimlar faqatgina so'zlarning ma'nolarini izohlash bilan kifoyalanmay, balki nasx, qasam, mushkil, zarbul masal kabi bir mavzu yoki bir masalagagina taalluqli bo'lgan tafsirlarni ham yozganlar. Abu Ubayla al-Qosim ibn Salomning "an-Nosix val mansux", al-Movardiyning "Amsolul Qur'on", Izz ibn Abdussalomning "Majozul Qur'on" kabi asarlari shular jumlasidan.[3:143]

Mavzuiy tafsirlar qadimdan olimlar tomonidan alohida o'rganiladigan tafsir uslubi bo'lgan. Hozirga kelib esa, bunday uslubdagi tafsirlar shu darajada ko'payib ketdiki, u tadqiqotchilar uchun keng o'rganiladigan alohida bir yo'nalish sifatida shakllandi.

Bugungi kungacha 6000 dan ziyod tafsir kitoblari yozilgan bo'lsa hamki, biror kimsa Qur'on oyatlarini tafsir qilish tugadi, Qur'on oyatlarining ma'nolari tamomila sharhlanib bo'ldi, bundan keyin kim Qur'on oyatlariga tafsir yozsa uni qabul qilinmaydi, deb aytolmaydi. Uni o'rganishlik davom etaveradi. Bu Qur'on eng buyuk mo'jiza ekanligining alomatidir. Shu e'tibordan ba'zi ulamolar shunday degan ekanlar: "Qur'oni Karim oyatlarini zamonlar sharhlaydi". Haqiqatda, mulohaza qilinsa, Qur'oni Karim oyatlarining ma'nolari har bir zamon va makonni qamrab oladi. Balog'atning eng cho'qqisida bitilgan Alloh taoloning bu kalomi o'z davrida johiliyat mushriklarini ham aynan mana shu e'tibordan ojiz qoldirgan edi.

FOYDALANILGAN ADABIYOT VA MANBALAR RO'YXATI:

1. M.M.Agzamova. Islomshunoslik. darslik / M.M.Agzamova Toshkent "Ozbekiston xalqaro islom akademiyasi" nashriyot-matbaa birlashmasi, 2021. 176 b.
2. Qur'on ilmlari (savol-javoblar): diniy-marifiy / Ahmadxon Rashidov, – Toshkent: "Book Media Shop" MCHJ qoshidagi "Munir" nashriyoti, 2024. – 288 b.

INVESTITSION LOYIHALARNI MUVAFFAQIYATLI AMALGA
OSHIRISHDA ZAMONAVIY BOSHQARUVDAN SAMARALI
FOYDALANISH YO‘LLARI

Yusupov N.S.

Andijon iqtisodiyot va qurilish instituti

“Tarmoqlar iqtisodiyoti” kafedrasining assistenti

n.s.yusupov@mail.ru

+998979853130

Sharobiddinov Ahrorbek Qosimjon o‘g‘li

Andijon iqtisodiyot va qurilish instituti 3-bosqich talabasi

Akramjonov Abdullo Akramjon o‘g‘li

Andijon iqtisodiyot va qurilish instituti 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada, investitsiya loyihalarini boshqarish mavzusining dolzarbligi va uning tadbirkorlik sohasidagi ahamiyati ta'kidlangan. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan investitsion loyihalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishda zamonaviy boshqaruvdan samarali foydalanish zaruriyati tahlil qilingan.

Kalit so‘zlari: Loyiha, diversifikatsiya, inflyatsiya, risk, innovatsiya, investitsion loyihalari.

Аннотация. В данной статье подчеркивается актуальность темы управления инвестиционными проектами и ее значение в сфере предпринимательства. Проанализирована необходимость эффективного использования современного менеджмента для успешной реализации инвестиционных проектов, реализуемых в нашей стране.

Ключевые слова: проект, диверсификация, инфляция, риск, инновации, инвестиционные проекты.

Annotation. This article highlights the relevance of the topic of investment project management and its importance in the field of entrepreneurship. The necessity of effective use of modern management for the successful implementation of investment projects implemented in our country is analyzed.

Keywords: project, diversification, inflation, risk, innovation, investment projects.

Loyihalarni boshqarish har qanday mamlakat iqtisodiyotida muhim rol o‘ynaydi hamda ko‘p jihatdan aholi bandligini ta’minlashda, jamiyat taraqqiyotini jadallashtirishda iqtisodiy faoliyatning muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham loyihalarni samarali amalga oshirish bilan bog‘liq muammo, ayniqsa, hozirgi davrda bozor munosabatlari sub’ektlarini birlashtirish va

mulkni qayta taqsimlash jarayonida jiddiy e'tiborga loyiqdir.

Jahon amaliyotida loyihalarni iqtisodiyotning istiqbolli va yuqori texnologiyalarga asoslangan tarmoqlariga joylashtirish mexanizmlarini maqbullashtirish, loyihalarni moliyalashtirish amaliyotini rivojlantirish, investitsiyon muhit jozibadorligini oshirish va investitsiya faoliyatini boshqarish vositalarining o'zaro muvofiqligini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Investitsion loyihalarni samarali boshqarivi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning "Biz iqtisodiyotimizga sarmoya kiritishga intiladigan investorlar uchun hududlar va tarmoqlar bo'yicha investitsiya loyihalarini puxta shakllantira olsak, bu masalada ijobiy natijaga erishishimiz mumkin, - deya ta'kidlab o'tganlari bejiz emas [1].

Investitsiya loyihalarini boshqarishning zaruriyati quyidagi jihatlarga asoslanadi:

1.Kuchli raqobat muhiti loyiha bo'yicha investitsiyalashning amalga oshirilishi va uning samaradorligini pasaytirib yuborish xavfini kuchaytiradi.

2.Investitsion loyihalarni boshqarish vaqt jarayoni bilan amalga oshiriladi. Vaqt o'tishi bilan mablag' o'z qiymatini yo'qotib borishi, investitsiya jarayonida kapitalni optimal ishlatilishini ta'minlash zaruriyatini keltirib chiqaradi.

3.Inflyatsiya loyihani amalga oshirishga ta'sir ko'rsatuvchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Bu, esa, foiz stavkasining o'zgarishi, valyutaning keskin o'zgarishi, qonunchilikdagi o'zgarishlar, kabilar natijasida yuzaga kelishi mumkin.

4.Riskni e'tiborga olgan holda investitsiya loyihalarni, shuningdek, undagi jarayonlarni samarali boshqarish uchun, boshqaruvning zamonaviy tamoyillari, mexanizmlari va usullarini bilish hamda ulardan optimal foydalanish rivojlanishning yangi sifatiga o'tish imkonini beradi.

Zamonaviy loyiha boshqaruvi - bu keng va murakkab tajriba sohasi bo'lib, juda ko'p tayyorgarlik va amaliyotni talab qiladi. Loyihani boshqarish orqali muammolarni hal qilishda, ko'plab omillar va xavflarni hisobga olish kerak. Agar investitsion loyihalarni boshqarish bosqichlarining kamida bittasida jiddiy xatolar bo'lsa yoki noto'g'ri qarorlar natijasida yuzaga kelgan xatolar bo'lsa, bu investitsiyalarni boshqarish samaradorligiga katta ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shuning uchun, investitsiyalarni zamonaviy samarali boshqarishda ma'lum bir strategiyani hisobga olgan holda, uning benuqsonligi va maksimal samaradorligiga to'liq ishonch hosil qilish kerak bo'ladi.

Loyihaning muvaffaqiyatli bajarilishini ta'minlash uchun tadbirkorlar rivojlangan davlatlar tajribasidan o'tgan metodologiyalarni qo'llashlari Maqsadga muvofiq bo'ladi. Dunyo hamjamiyatida tan olingan loyiha boshqaruvi tizimlaridan biri Loyihani boshqarish instituti (PMI) tomonidan puhta ishlab chiqilgan PMBOK tizimidir. PMBOK loyihalarni boshlash, rejalashtirish, amalga oshirish, monitoring qilish, nazorat qilish va tugallashni o'z ichiga olgan, loyihalarni boshqarish bo'yicha eng

yaxshi tizimlardan biridir. Ushbu standartlashtirilgan jarayonlarga rioya qilish orqali korxonalar loyiha natijalarini yaxshilashi, manfaatdor tomonlar bilan birga loyiha umumiy muvaffaqiyat darajasini oshirishi mumkin[2].

Bundan tashqari, Agile loyihalarni boshqarish metodologiyalari so'nggi yillarda mashhurlikka erishib bormoqda. Scrum va Kanban kabi Agile metodologiyalari qo'shimcha yondashuvlarga urg'u berib, loyihani amalga oshirishda moslashuvchanlikni, egiluvchanlikni kuchaytiradi. Ushbu metodologiyalar, talablar va bozor dinamikasi tez-tez o'zgarib turadigan sohalarida ayniqsa qimmatlidir.

Mamlakatimizdagi tadbirkorlar, rivojlanayotgan biznes ehtiyojlariga samarali javob topish uchun Agile tamoyillarini o'zlarining loyihalarni boshqarish amaliyotiga kiritishdan katta foyda olishlari mumkin.

Loyihani samarali boshqarishni ta'minlash uchun amerikalik tadqiqotchilar nazdida, loyihani tayyorlash jarayonida asosiy e'tiborni qaratish kerak bo'lgan bir qator muhim elementlar borligini ta'kidlaydilar [3]:

birinchidan, Jamoa loyiha mohiyatini birdek tushunishlari kerak.

ikkinchidan, Boshqaruvda qabul qilingan qarorlar jamoa tomonidan to'liq qo'llab-quvvatlanishi kerak.

uchinchidan, Bo'limlar orasida, loyihani boshqarish jarayonida axborot tezkor almashinuvi kerak.

to'rtinchidan, Loyiha, ish yurituvchi tomonidan rejalashtirilgan mezonlar asosida borishini tahlil qilish. Masalan, ma'lum bir sana bo'yicha aniq natijalarga erishish, tashkilot maqsadlarini to'liq tushuntirish, ularga erishishda jamoada motivatsiyani shakllantira olish, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nizolar bilan ishlash ko'nikmalarining shakllanganligi va boshqalar.

beshinchidan, Boshqaruvchida liderlik fazilatlarining mavjud bo'lishi, loyihani samarali boshqarishni ta'minlashda alohida ahamiyatga ega (mas'uliyat, qobiliyat, va rag'batlantirish).

So'nggi yillarda boshqaruv amaliyoti nafaqat moddiy, balki nomoddiy aktivlarni ham boshqarish zarurligiga duch kelmoqda [4]. Ular orasida inson resurslari, savdo belgilari, imidj, bilim, ya'ni intellektual kapital elementlari kabi nomoddiy aktivlar. Ular investitsiya ob'ekti va shunga mos ravishda investitsiya loyihasi doirasida, tabiiyki boshqaruv ob'ektiga aylanmoqda. Har qanday investitsiya loyihasining muvaffaqiyati, oxir-oqibat, ushbu loyiha doirasida intellektual kapitaldan qanchalik samarali foydalanish bilan ham belgilanmoqda [5]. Shuningdek, loyihalarni boshqarishda zamonaviy texnologiyalaridan foydalanish orqali, uning samaradorligini sezilarli darajada oshirishi mumkin. Tobora, zamonaviy boshqaruv texnologiyalari vositasida investitsiya loyihalarini boshqarish, boshqaruv faoliyatining nisbatan mustaqil sohasi bo'lib bormoqda [6].

Yuqorida aytilganlarning barchasini sarhisob qilsak, investitsiya loyihalarini

amalga oshirishni samarali boshqarish oson ish emasligini tushunishimiz mumkin. Ammo investitsiya loyihalarini boshqarishning dolzarbligi shundaki, bu kapitalning muvaffaqiyatli ishlashi uchun dasturdir [7].

Xulosa qilib aytganda, loyihalarni shakllantirish va boshqarish bo'yicha ilg'or tajribalar asosida xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni investitsiya faoliyatini zamonaviy loyihaviy boshqaruvini joriy etishda:

- Ushbu faoliyat sohasidagi investitsiya portfelini o'sishining maqsadli ko'rsatkichlari, investitsiyalar tarkibidagi innovatsion loyihalar ulushining o'sishi, investitsiya faoliyatini moliyalashtirishning asosiy manbalari hajmi va shartlarini aniqlash.

- Investitsiya loyihalarini shakllantirish, ularni ekspertizadan o'tkazish va amalga oshirilishini monitoring qilish.

- Investitsiya portfelini imkoni boricha diversifikatsiyalash. Yuzaga kelishi mumkin bo'lgan havfni-hatarni minimallashtirish maqsadida.

- Innovatsiyalarni rag'batlantirish, raqobatchilarning pozitsiyalari va harakatlarini tahlil qilish va baholab borish.

- Rivojlanishdagi mavjud imkoniyatlar va kamchiliklarni aniqlash, prognozlash va raqamli texnologiyalardan unumli foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil uchun mo'ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2018-yil 28-dekabr.

2. O'Regan, N., & Dell'Isola, A. (2018). Infrastructure investment: A review essay. *Journal of Economic Surveys*, 32(2), 547-576.

3. Manktelow J. Risk Analysis Risk analysis and risk management: evaluating and managing risks 2015.

4. Powel JE. Q&A: Evaluating risk for project success. *Enterprise Systems Journal* 2011.

5. The Development of Tourism Activity and its Role in the World Economy YN Saidturaevich *EUROPEAN JOURNAL OF BUSINESS STARTUPS AND OPEN SOCIETY* 4 (4), 2024.

6. O'zbekiston sharoitida "yashil iqtisodiyot"ga o'tishning ustuvor yo'nalishlari va talablari YN Saidturaevich *Fan, tadqiqot va ishlanmalarda eng yaxshi innovatsiyalar jurnali* 3 (1), 2024.

7. QISHLOQ XO'JALIGINI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSION FAOLIYATNI O'RNI VA AHAMIYATI. N.Yusupov *Evraziyskiy jurnal texnologiy va innovatsiya* 1 (4), 2023.

**“TO‘QIMACHILIK SANOATIDA MAHALLIY BRENDLAR
OMMAPOBLIGINI OSHIRISHDA TASHQI SAVDO
OPERATSIYALARINING TAHLILI”**

Anvarov Nozimjon Maxsudbek o‘g‘li

Toshkent davlat Iqtisodiyot instituti

“Moliya va moliya texnologiyalari” kafedrasi asissenti

nozimanvarov40@gamil.com

Tel: +99897-988-22-77

Annotasiya: Mamlakatimizda 2017-yildan boshlab to‘qimachilik sanoati shiddatli darajada rivojlanib, O‘zbekiston tub ma‘noda to‘qimachilik sanoatida ulkan burilish yasab, taraqqiy topa boshladi, va to‘qimachilik sanoati O‘zbekiston iqtisodiyotining drayverlaridan biriga aylandi. Qisqa davr mobaynida, to‘qimachilik vatikuv – tirkotaj(tayyor mahsulotgacha bo‘lgan jarayon) sanoatini yanada rivojlantirish uchun zarur normativ xujjatlar va qulay sharoitlar yaratish, xalqaro standart talablar asosida faoliyat olib boradigan tuzilmalar tashkil etildi. Keying yillarda esa paxta tolasini chuqur qayta ishlash negizida yuqori qo‘shilgan narxli, korxonalar bozorlarda talab qilinadigan tayyor to‘qimachilik va tikish-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish belgilangan. Shu bilan, Hozirgi kunda O‘zbekistonda engil sanoat va to‘qimachilik sohasi tarmoqlari jadal rivojlanib bormoqda.

Kalit so‘zlar: to‘qimachilik sanoatida, tirkotaj, paxta tolasi, klaster ,eksport, import, savdosi, kapital kredit, valyuta, yalpi ichki mahsulotda.

Mamlakatimizda 2017-yildan boshlab to‘qimachilik sanoati shiddatli darajada rivojlanib, O‘zbekiston tub ma‘noda to‘qimachilik sanoatida ulkan burilish yasab, taraqqiy topa boshladi, va to‘qimachilik sanoati O‘zbekiston iqtisodiyotining drayverlaridan biriga aylandi. Qisqa davr mobaynida, to‘qimachilik vatikuv – tirkotaj(tayyor mahsulotgacha bo‘lgan jarayon) sanoatini yanada rivojlantirish uchun zarur normativ xujjatlar va qulay sharoitlar yaratish, xalqaro standart talablar asosida faoliyat olib boradigan tuzilmalar tashkil etildi. Keying yillarda esa paxta tolasini chuqur qayta ishlash negizida yuqori qo‘shilgan narxli, korxonalar bozorlarda talab qilinadigan tayyor to‘qimachilik va tikish-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish belgilangan. Shu bilan, Hozirgi kunda O‘zbekistonda engil sanoat va to‘qimachilik sohasi tarmoqlari jadal rivojlanib bormoqda.

Yurtimizda qabul qilingan qator qaror va farmonlar, shu jumladan, Prezidentimiz tomonidan qabul qilingan “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 10.01.2023 yildagi PF-2-sonli “Paxta to‘qimachilik klasterlari faoliyatini qo‘llab-

quvvatlash, to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini tubdan isloh qilish hamda sohaning export salohiyatini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi farmonlarida mamlakatimizda milliy iqtisodiyot barqarorligini ta’minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga oshirish va iqtisodiyot tarmoqlarida barqaror yuqori o‘sish sur‘atlarini ta’minlash orqali kelgusi besh yilda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot - 1,6 baravar oshirish hamda to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 2-3 baravarga oshirish, to‘qimachilik sohasining eksport salohiyatini 2023 yil yakuniga ko‘ra 5 milliard AQSH dollariga etkazish, ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasini 65 dan 81 foizga oshirish hamda 35000 ta bo‘sh ish joyini to‘ldirish rejalashtirilgan.

2017-yildan boshlab mamlakatimizning jahon iqtisodiyotiga integratsiyasini ta’minlash, eksport va import operatsiyalari hajmini yanada kengaytirish, raqamli texnologiyalarni ishlab chiqarish tarmoqlariga keng joriy etish orqali sifatli va xalqaro bozorlarda raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishga e’tibor qaratilishiga qaramasdan, tashqi savdo balansi defitsiti ortib bormoqda. Xususan, 2017-yilda tashqi savdo balansi defitsiti 1458,7 mln. dollarni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilga kelib qariyb 12 barobarga ortib, 13,7 mlrd dollarga yetdi. 2017-2023-yillarda tashqi savdo balansi defitsitining kamayishi koronavirus pandemisi davrida, ya'ni 2020-yilda 2019-yilga nisbatan 782,1 mln. dollarga yaxshilangan. 2020-yilni inobatga olmagan holda mamlakatimizda import operatsiyalari eksport operatsiyalariga qaraganda yildan-yilga ko'payib borganligini ta'kidlash mumkin.

2022-2023-yillarda O'zbekiston Respublikasi tashqi savdo aylanmasi va saldosi (mln. AQSh dollari)¹

Ko'rsatkichlar	2022 y.	2023 y.	O'sish sur'ati, foizda	Jamiga nisbatan foizda
Tashqi savdo aylanmasi	50500,3	62567,4	23,9	100
Eksport	19732,6	24426,2	23,8	39
Tovarlarni	11166	11092,7	-0,65	45,4
Xizmatlar	4456,7	5179,7	16,2	21,2
Nomonetar oltin	4110,3	8153,8	98,4	33,4
Import	30767,8	38141,2	24	61
Tovarlarni	28220,3	35574,8	26,1	93,3
Xizmatlar	2547,5	2566,4	0,7	6,7
Saldo	-11035,2	-13715	-	-

¹ www.stat.uz

Har bir davlat xalqaro savdo operatsiyalarini amalga oshirishda yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarishga intiladi. Dunyoning barcha mamlakatlari jahon bozoridagi o'zgarishlarga bardosh bera oladigan va xaridorbop mahsulotlar ishlab chiqarish strategiyasiga ega bo'lishi tabiiy. Tashqi savdo operatsiyalari mamlakat iqtisodiyoti taraqqiyotiga va xalqaro moliyaviy barqarorligiga ta'sir etadi. Hozirgi kunda mamlakatimizning xorijiy mamlakatlar bilan hamkorlik aloqalarini yanada mustahkamlanishi natijasida tashqi savdo aloqalari rivojlanmoqda. Shuningdek, mamlakatimizda faoliyat yurituvchi xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar milliy kompaniyalarga xalqaro bozorlarda tajriba orttirishga imkon yaratmoqda. Ushbu islohotlar pirovardida mamlakatimizda ishlab chiqarilgan tovarlarni jahon bozorida raqobatbardoshlik darajasini oshirishga qaratilmoqda.

Eksportni rag'batlantirish, importni optimallashtirish va tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida ishlab chiqilgan islohotlarni muvaffaqiyatli amaliyotga joriy etilishi 2023 yilda mamlakatimiz tashqi savdo aylanmasini 62,6 mlrd. AQSh dollariga yetishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. 2023 yilda tashqi savdo aylanmasi 2022 yilga nisbatan 23,9 foizga yoki 12,1 mlrd. AQSh dollariga oshdi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

I. Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar

1. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni 28.01.2022 yildagi PF-60-son,.
2. Philip Kotler: Marketing Essentials. (1984). / Филип Котлер: Основы маркетинга. Перевод на русский язык: Бобров, В.Б.-М., (1990).
3. Томпсон, А.А., Маргарет Питереф., Джон Гембл. (2015). Стратегический менеджмент. Создание конкурентного преимущества. Вильямс.
4. Шифрин, М.Б. (2019). Стратегический менеджмент. Издательство Юрайт.
5. Шульгина, Л.В., Овсянников, С.В. (2009/3). Актуальные проблемы разработки антикризисной стратегии промышленного предприятия. ФЭС:Финансы, Экономика, Стратегия. (11-15)
6. Таласов, М.Ж., Тулеметова, А.С., (2008). Пути достижения конкурентоспособности продукции текстильной промышленности. Сборник научных трудов вузов России. (Проблемы экономики, финансов и управление производством), (25).
7. Горина, Я.М., (2012). Факторная оценка конкурентоспособности предприятий текстильной промышленности. Вестник Череповецкого государственного университета, (41).
8. Yo'ldoshev, N.Q. (2019). Strategik menejment. Darslik.-T.: Iqtisodiyot.,122 b

9. Kattakishiyev B., Mamayusupov I. (2008). Strategik menejment fanidan praktikum. – T.,Fan va texnologiya, 232 b.

1. www.gov.uz- O‘zbekiston Respublikasi Davlat hokimiyati portali.
2. www.press-service.uz- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Matbuot xizmati rasmiy sayti.
3. www.cbu.uz – O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy sayti.
4. www.stat.uz – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi davlat statsitika agentligi.
5. www.lex.uz - O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining rasmiy sayti ma’lumoti.
6. www.cer.uz - Iqtisodiy tadqiqotlar Markazining rasmiy sayti.
7. www.ipakyulibank.uz AITB “ Ipak yo`li banki rasmiy sayti.

ENERGIYA TEJAMKOR KONTAKTSIZ KOMMUTATSION QURILMALARINI ELEKTR TAMINOTI TIZIMLARIDA QO'LLASH

*E.X.Abduraimov, Toshkent davlat texnika universiteti
“Elektr texnikasi” kafedrasida dotsenti, texnika fanlari nomzodi
N.E.Hamidova, “JUPU Energy Consulting” MChJ menejeri*

Annotatsiya: Maqolada kontaktless kommutatsiya qurilmalarining kontaktli qurilmalarga nisbatan afzalliklarini tahlil qilgan holda, elektr taminoti tizimlarida qo'llanilishi mumkin bo'lgan energiya tejovchi yarim o'tkazgichli kontaktless kommutatsiya qurilmalarini ishlab chiqishni taqdim etadi. Qayd etilishicha, elektr taminotida kuchli elektromexanik yuklarni tarmoqqa ulash uchun yarim o'tkazgichli kommutatsiya qurilmalaridan foydalanish energiya yo'qotilishining kamayishiga olib keladi. Ishlab chiqilgan kalitlar, ajratgichlar, o'chirgichlar, kuchlanish (tok) relelari elektr sxemalari, ularning ishlash tamoyillari va tavsiflari bilan taqdim etilgan. Ushbu kontaktless kommutatsiya qurilmalarini elektr taminoti tizimlarida tizimlarida keng qo'llash tavsiya etiladi.

Kalit so'zlar: *kontaktless qurilmalar, yarim o'tkazgich, tarmoq, tok, rele, tristorli kontaktorlar, elektr zanjiri, ulash, uzish, yuklama.*

Abstract: The article presents the development of energy-saving semiconductor contactless switching devices that can be used in power supply, electromechanical and electro technological systems, and analyzes the advantages of contactless switching devices over contact devices. It is noted that the use of semiconductor switching devices to connect powerful electromechanical loads to the network leads to a reduction in energy losses. The developed switches, disconnectors, circuit breakers, voltage (current) relays are presented with electrical diagrams, principles of their operation and descriptions. It is recommended to widely use these contactless switching devices in power supply, electromechanical and electro technological systems.

Key words: *contactless devices, semiconductor, net, current, relay, thyristor contactors, electrical circuit, connection, shutdown, load.*

Sanoat korxonalarida ishlab chiqarish jarayonlarining keng miqyosida avtomatlashtirilishi, avtomatik boshqaruv tizimlarini tadbiq qilinishi natijasida elektr jihoz va uskunalarning uzoq muddatga yaroqliligiga, chidamliligiga, kam xarajatliliga va ishlash tezligiga bo'lgan talablarni kuchaytirdi. Bunday talablarning asosiy qismiga kontaktless elektr qurilmalari javob bera oladi.

Kontaktless elektr qurilmasi deganda, elektr zanjirlarini fizik ajratmagan holatda ularni uzish yoki ulash tushuniladi. Kontaktless qurilmalarning kontaktli qurilmalarga


nisbatan afzalliklari bu ularning harakatlanuvchan qismi va kontakt-larining yo'qligi, ishlash tezligi yuqori chastota bilan qayta ulanishidadir. Katta quvvatli kontaktli qurilmalarda harakatlanuvchan qismi inertsiyasi hisobiga ishlash tezligi kamayadi. Kontaktsiz qurilmalarda esa harakatlanuvchi qismlar yo'qligi uchun ham qayta ulanish vaqti kontaktilarga nisbatan bir necha barobariga kichik bo'ladi.

Kontakt va ishqalanuvchan qismlarning yemirilishi, kontaktli qurilmalarning xizmat vaqtini chegaralaydi, shuning uchun ularning ishlatilishi uzib-ulashlar soni bilan belgilanadi. Kontaktsiz qurilmalarda ishqalanuvchi qismi va kontaktlari bo'lmaganligi sababli, qayta ulanishlar soniga nisbatan amaliy cheklashlar yo'q. Kontaktsiz qurilmalarning ishlatish vaqti asosan shu qurilmadagi ishlatilgan komponentlarning eskirishiga bog'liq, ayrim qurilmalar borki, ularning ishlatilish vaqti deyarli cheklanmagan.


Kontaktli qurilmalarda kontaktlarni chang ifloslardan saqlash choralari ko'rish, portlashga xavfli joylarda kontaktlar orasida vujudga keluvchi uchqun yoki yoylarning oldini olish choralari ko'rilishi talab qilinadi.

Ishlatish qulayligi kontaktsiz qurilmalarda (ko'p va og'ir mehnat talab qiladigan kontaktlarni tozalash va sozlash ishlarining yo'qligi), mexanik turg'unligi, ish qobiliyatini har qanday holatda saqlab qolishi, portlashga xavfli va ifloslangan muhitda ishlatilishi mumkinligi kontaktsiz qurilmalarini elektrotexnikada keng ishlatilishiga olib keldi.

Kontaktsiz qurilmalarning ishlash tamoyili noxiziqli volt-amper xarakteristikasiga ega bo'lgan elementning ishlatilishiga asoslangan. Ulardan asosiy elektr asbobsozligida qo'llaniladiganlari noxiziqli induktivlik (ferromagnit o'zakli chulg'am) va noxiziqli aktiv elementlar (yarim o'tkazgichli qurilmalar). Bunda noxiziqli element ishchi zanjirga manba bilan yuklama orasiga ulanib, u qarshiligini elektr tokiga kichik qiymatdan katta qiymatgacha o'zgartirishi mumkin. Bu qarshilik o'zgartirishini kichik quvvat hisobiga bajarilib yuklamadagi katta quvvatni boshqarish mumkin. Hozirgi davrda ishlab chiqarishni boshqarish tizimini avtomatlashtirish asosan yarim o'tkazgichli hamda mikroprotessorli asboblardan foydalanish bilan hal etilmoqda. Tiristorli kontaktorlar o'zgaruvchan va o'zgarmas tokda ishlaydigan xillarga bo'linadi (1,2-rasmlar). Bu sxemalardan iste'molchini bir fazali o'zgaruvchan tok tarmog'iga ulab-uzishda foydalaniladi.



1-rasm. Tiristorli o'zgaruvchan tok kontaktori sxemasi




2-rasm. Tiristorli o'zgarvas tok kontaktori sxemasi


Kuch zanjirlarini kommutatsiyalovchi (uzib-ulovchi) elektromagnitli apparatlar kontaktorlar, magnitli ishga tushirgichlar va boshqa shunga o'xshash elementlarning eng muhim kamchiligi ulardagi kontaktlar ishonchligining pastligidir. Katta toklarning kommutatsiyasi kontaktlar orasida yoyning vujudga kelishi bilan bog'langan. Bu esa ularning qizishiga, erishiga va natijada kommutat-siyalovchi apparatlarning ishdan chiqishiga olib keladi. Kuch zanjirlari tez-tez ulab-uzib turiladigan qurilmalarda kommutatsiyalovchi apparatlar kontaktlarining ishonchsiz ishlashi butun qurilmaning ishlashiga salbiy ta'sir qiladi. Tiristorlar asosida yaratilgan tiristorli kontaktorlar yuqorida ko'rsatilgan kamchiliklardan xolidir.

Ko'rib chiqilgan sxemada tiristorni ulash kalit yordamida amalga oshirilishi-ga qaramasdan, bu tiristorli kontaktorning ishlash ishonchligi elektromagnit kontaktornikidan ancha yuqori, chunki kalit kontaktlari boshqaruvchi elektrodlar zanjirini kommutatsiyalaydi, ularga esa yuklama tokidan bir necha million martagacha kichik tok keladi. Kalit o'rnida relening kontaktidan foydalanish mumkin. Tiristorli kontaktorlarni elektron sxemalar yordamida kontaktsiz qilish mumkin. Bir fazali tiristorli kontaktorlar asosida uch fazali tiristorli kontaktorlarni yaratish hech qanday qiyinchilik tug'dirmaydi. Tiristorli o'garmas tok kontaktori o'zgaruvchan tok tiristorli kontaktoridan farqli o'laroq majburiy kommutatsiya uzelliga ega bo'lishi kerak. Chunki, tiristorni yopish uchun boshqaruvchi signalnigina o'chirish kifoya qilmay, balki tiristor tokini ham nolgacha pasaytirish kerak.

Yarim o'tkazgichli asboblarda tiristorli optojuftlikdan foydalanilgan holda o'zgaruvchan tok bir fazali kontaktsiz statik uzgichi (3-rasm) hamda tranzistor optronli kontaktsiz kommutator sxemalari (4-rasm) ishlab chiqilgan.




3-rasm. Bir fazali kontaktsiz statik uzgichi sxemasi




4-rasm. Tranzistor optronli kontaktsiz kommutator sxemasi

Katta quvvatli tiristorli qurilmalarni keng ishlab chiqarilishini yo'lga qo'yilishi ularni kontaktsiz kuchli qurilmalarni yaratish imkonini berdi. Toshkent davlat texnika universitetining "Elektrotexnika" kafedrasida bunday qurilmalar ustida izlanishlar olib borilgan. Bunday qurilmalardan kontaktsiz tiristorli o'zgaruvchan kuchlanish (5,6-rasmlar) (tok) relesi, tranzistorli kuchaytirgichi asosidagi kontaktsiz yarim o'tkazgichli rele, yarim o'tkazgichli optoelektron asboblari asosidagi kuchaytirgich relelari, vaqt relesi, undan tashqari stabilizatorlarning yangi turlarini yaratishda bu relelarni, optoelementlarni boshqarish va kuch zanjirlarida ishlatish ishlari ustida izlanishlar olib borilmoqda.



5-rasm. Optik elektronli kuchlanish relesi



6-rasm. Kuchlanishning "kirish-chiqish" tavsifi

Hozirgi vaqtda tiristorli qurilmalar elektr ta'minoti tizimlarida, elektr yuritmalarini kontaktsiz kommutatsiyalash va rostlovchi qurilmalari sifatida keng qo'llanilmoqda. Bunday qurilma jihozlarning ishlatilishi elektr energiyasi sifatini oshirishga, kapital mablag'larni sarf-xarajatlarini kamaytirishga va elektr ta'minoti texnikasida yangi imkoniyatlarga yo'l ochib beradi. Tiristorlarni boshqarish elektrodi toki yordamida ochib yopish katta ahamiyatli bo'lib, shu asosida birinchidan boshqarish signali bilan anod kuchlanishining har xil qiymatida ochishi imkonini bersa, ikkinchidan bu usul katta quvvatli zanjirlarni kichik boshqarish signali bilan

kommutatsiya qilish imkonini beradi.

Yuqoridagilarni e'tiborga olgan holda olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida bir nechta ilmiy maqolalar chop etilgan va patentlar olingan. Bu olib borilgan ilmiy izlanishlarda yuqorida keltirilgan kontaktsiz tiristorli qurilmalar va o'zgaruvchan kuchlanish relelari elektr taminoti tizimlarida qo'llash masalalari ko'rib chiqilgan bo'lib, ularning ishlash rejimlari, yuklanish tavsiflari va sxemalari tahlil qilingan. Elektr taminoti tizimlarida tekshirilgan tiristorli kontaktsiz qurilmaning boshqa relelardan farqi yuklamadagi sinusoidal kuchlanishni manba kuchlanishi sifatini buzmaganda ta'minlay oladi.

Adabiyotlar

1. Усманов Э.Г., Абдураимов Э.Х., Каримов Р.Ч. Оптоэлектронное бесконтактное реле напряжения // Агентство по интеллектуальной собственности РесУз. Патент на изобретение № IAP 05122. 29.10.2015.

2. Абдураимов Э.Х., Халманов Д.Х. Силовые бесконтактные коммутирующие устройства Международная конференция «INNOVATION– 2017» Сборник научных статей. Ташкент, 2017, -С.219-220.

3. Абдураимов Э.Х., Халманов Д.Х. Энергосберегающие бесконтактные коммутирующие устройства. Международная конференция «Проблемы повышения эффективности использования электрической энергии в отраслях агропромышленного комплекса» ТИИИиМСХ г. Ташкент 28 ноября 2018 г. С-134-138.

4. Каримов И.Ч., Каримов Р.Ч. Электр таъминоти тизимларида kontaktsiz ускуналарнинг ишлатилиши // «Техника юлдузлари» журналы (ISSN: 1682-7686). Тошкент, 2017. - №4. – Б.53-56.

5. Бобожанов М.Қ., Расулов А.Н., Каримов Р.Ч., Саттаров Х.А. Электр таъминоти тизимида kontaktsiz кучланиш стабилизаторларини тадқиқ қилиш // «Мухаммад ал-Хоразмий авлодлари» журналы (ISSN: 2181-9211). Тошкент, 2018. - №3(5). – Б.106-109.

6. Абдураимов Э.Х., Халманов Д.Х., Хамидова Н.Э. Высокоэффективные и надёжные бесконтактные коммутирующие устройства. Материалы республиканской научно-технической конф. «Интеграция науки, образования и производства важнейший фактор в реализации инвестиционных проектов» Фил. Рос.Гос Университета Н и Г им. Губкина. Ташкент -2019, С.247-249.

7. Каримов Р.Ч., Рўзиназаров М.Р., Паноев А.Т. Электр таъминоти тизимида сигимли филтрли тўғрилагични таҳлил қилиш // «Фан ва технологиялар тараққиёти» илмий-техникавий журналы. Бухоро, 2017. - №1. – Б.22-27.

8. Каримов Р.Ч., Рафиқова Г.Р. Сигимли тўплагишлар энергиясини зарядловчи қурилмаларнинг параметрлари ва иш режимларини танлаш // «Фан ва технологиялар тараққиёти» илмий-техникавий журналы. Бухоро, 2016. - №1. – Б.9-19.

9. Суллийев А.Х., Каримов Р.Ч. Электр таъминоти тизимида оптоэлектронли кучланиш релесини ишлатиш // «ТошТЙМИ ахбороти» журналы (ISSN: 2091-5365). Тошкент, 2018. - №4. – Б.149-154.

10. Бобожанов М.Қ., Каримов Р.Ч. Электр таъминоти тизимида оптоэлектронли резистив занжирларни тадқиқ қилиш // «ТошДТУ хабарлари» журналы (ISSN: 1684-789X). Тошкент, 2017. - №4(101). – Б.53-57.

11. Расулов А.Н., Каримов Р.Ч., Абдураимов Э.Х., Рўзиназаров М.Р. Электр таъминоти тизимида транзисторли резистив занжирларни ишлатиш // «ТошДТУ хабарлари» журнали (ISSN: 1684-789X). Тошкент, 2015. - №3(92). – Б.108-113.
12. Абдураимов Э.Х., Расулов А.Н., Каримов Р.Ч., Рўзиназаров М.Р. Электр таъминоти тизимида куч тиристорларини бошқаришида оптоэлектронли резистив занжирларни ишлатиш // «ТошДТУ хабарлари» журнали (ISSN: 1684-789X). Тошкент, 2015. - №2(90). – Б.103-108.
13. Усманов Э.Г., Абдураимов Э.Х., Каримов Р.Ч. Использование бесконтактных реле для улучшения качества электроэнергии // Журнал «Вестник ТашГТУ» (ISSN: 1684-789X). Ташкент, 2013. - №3-4. – С.48-51.
14. Усманов Э.Г., Абдураимов Э.Х., Каримов Р.Ч., Авлакулов Х.П. Ночизиқли электр занжирида динамик жараёнларнинг таҳлили // «ТошДТУ хабарлари» журнали (ISSN: 1684-789X). Тошкент, 2010. - №1-2. – Б.72-75.
15. Усманов Э.Г., Абдураимов Э.Х., Каримов Р.Ч. Нелинейная динамическая цепь с тиристором // Журнал «Проблемы информатики и энергетики». Ташкент, 2006. - № 2-3. – С.37-41.
16. Кадыров Т.М., Каримов Р.Ч. Электр таъминоти тизимларида контактсиз реле ва ростловчи ускуналар // «Техника юлдузлари» журнали (ISSN: 1682-7686). Тошкент, 2006. - № 1. –Б.39-41.
17. Bobojanov M.K., Usmanov E.G., Abduraimov E.H., Karimov R.Ch. Resistive time delay switches // Scientific journal «European Science Review» (ISSN: 2310-5577). Vienna (Austria), 2018, January–February. №1-2. – PP.210-212.
18. Karimov R.Ch., Rasulov A.N., Meliqo'ziyev M.V., Almardonov O., Rafiqov M.Z. Analysis on diode electrical circuits // International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology. India. Issue 3, March 2019, - №6, – P.8294-8298.
19. Rasulov A.N., Karimov R.Ch. The Contactless Relay of Tension in System of Power Supply // Scientific journal « Eastern European» (ISSN: 2199-7977). Dusseldorf (Germany), Ausgabe. 2015. - №4. – PP.174-178.
20. Rasulov A.N., Karimov R.Ch. The Contactless Thyristor Device for Inclusion and Shutdown of Condenser Installations in System of Power Supply // Scientific journal «Eastern European» (ISSN: 2199-7977). Dusseldorf (Germany), Ausgabe. 2015. - №4. – PP.179-183.
21. Мухиддинов Ш.С., Абдураимов Э.Х., Каримов Р.Ч. Оптоэлектронные резистивные цепи // Сборнике материалов IV-международной научно-практической конференции «Наука и современное общество: взаимодействие и развитие». Россия, Уфа, 2017. Том 2. – С.72-75.

**ЭФФЕКТИВНАЯ ЗАЩИТА И УПРАВЛЕНИЕ ЭЛЕКТРОПРИВОДАМИ
С ПРИМЕНЕНИЕМ ПОЛУПРОВОДНИКОВЫХ СХЕМ**

*Э.Х. Абдураимов, ТГТУ, доцент кафедры «Электротехника»,
кандидат технических наук, доцент*

*Н.Дж. Таурова, Ташкентский государственный технический
университет, старший преподаватель кафедры «Электротехника»*

Н.Э. Хамидова, менеджер ООО “JUPU Energy Consulting”

Аннотация: В работе приведены результаты теоретических исследований полупроводниковых цепей проведенного для практического применения в разработке бесконтактного коммутирующего и регулирующего аппарата для управления запуском и защитой от минимальных напряжении электродвигателей переменного тока. По результатам анализа полупроводниковых цепей рекомендуется использовать их при создании релейных устройств автоматики электрооборудования. Исследованные полупроводниковые схемы были использованы в создании бесконтактного пускателя асинхронного электропривода с защитой от работы при пониженных напряжениях сети. Приводятся осциллограммы экспериментальных исследований предложенного коммутирующего и защитного бесконтактного аппарата.

Ключевые слова: стабилизатор напряжения, система управления, бесконтактное реле, тиристор, конденсатор, транзистор, симистор, микроконтроллер, автотрансформатор.

Annotation: The paper presents the results of a theoretical study of semiconductor circuits carried out for practical use in the development of a non-contact switching and control apparatus for starting control and under voltage protection of AC motors. According to the results of the analysis of semiconductor circuits, it is recommended to use them when creating relay devices for the automation of electrical equipment. Theoretical investigated semiconductor circuits were used in the creation of a non-contact starter of an asynchronous electric drive with protection against operation at minimal voltage drops in the network.

Keywords: power quality indicators, voltage stabilizer, control system, non-contact relay, thyristor, capacitor, transistor, triac, microcontroller, autotransformer.

Проблема создания надёжных и экономичных пускозащитных и коммутирующих устройств и аппаратов как элементов электрооборудования для цепей переменного тока имеет весьма большое значение для обеспечения бесперебойности, чёткости и быстродействия работы электроприводов и других

энергетических устройств. Особенно имеют перспективу применения полупроводниковых бесконтактных коммутирующих и регулирующих устройств, в трудно климатических условиях, в различных отраслях промышленности, в области автоматического управления электроприводами и в системах электроснабжения. Как известно и, при снижении напряжения питания асинхронных двигателей уменьшается уровень магнитного потока, а, следовательно, и крутящего момента. При этом увеличивается потребление тока, ведущее к снижению уровня напряжения в электросети, что отражается на работе других устройств, подключенных к ней. Помимо этого не следует забывать о пусковых токах, образующихся при запуске двигателей. Самопроизвольный запуск, происходящий при восстановлении напряжения после его исчезновения или при включении общего рубильника станка магистрали и т.д., для двигателей большинства механизмов промышленных предприятий недопустим по условиям безопасности обслуживающего персонала, из-за опасности поломки механизма, вследствие возможного брака продукции и по ряду других причин. Поэтому при значительном снижении напряжения в сети или его исчезновении двигателя, как правило, должны автоматически отключаться специальной защитой минимального напряжения.

В настоящее время защита минимального напряжения в схемах управления двигателями осуществляется линейными контакторами и электромагнитными пускателями или специальными реле минимального напряжения. Которые осуществляют включение автомата при напряжении сети не ниже 80% от номинального и автоматически отключают автомата при исчезновении напряжения или снижении его до 50% от номинального.

Нами для запуска и защиты от минимального напряжения электродвигателей переменного тока предлагается схема бесконтактного полупроводникового устройства для управления асинхронным электродвигателем, которые были изучены теоретическим и экспериментальными исследованиями. Теоретическими исследованиями составных частей предлагаемого устройства, были рассмотрены следующие цепи, показанные на рисунках 1 и 2.

На рисунке 1.а) представлена диодно тиристорная цепь, где выявлена релейный эффект, с помощью которого предлагается, осуществит запуск и защиту от минимального напряжения в схемах управления асинхронных двигателей. Разъяснения явления релейного эффекта можно провести на примере диодно-тиристорной цепи, когда тиристор VT последовательно подключается к сети через R_n активное сопротивление, а в цепь управления подается ток из сети через активное сопротивление R и диода VD (рис.1,а).




Рис. 1 а) Схема включения тиристора

Если медленно повышать величину входного напряжения, то при определенном значении $U_{вх}$, амплитудное значение сигнала управления будет равно току открывания тиристора, в этот момент тиристор VT открывается скачком при угле $\alpha=90^0$ (рис. 1.б). Дальнейшее увеличение напряжения приводит к уменьшению угла α почти до нуля, т.е. тиристор будет пропускать полную положительную полуволну тока. Величина напряжения, при котором тиристор открывается скачком, зависит от величины параметров R и R_L . Таким образом, открытие тиристора скачком или явления резкого изменение напряжения или тока на нагрузке в рассмотренной цепи можем назвать триггерным или иначе релейным эффектом.

Также, рассмотрени режим работы цепи, состоящей из последовательно-соединенных тиристора, активного сопротивления и индуктивной катушки, зная что, обмотки электродвигателей имеют активно-индуктивный характер нагрузки, и учитываем работу при напряжениях сети (рис.2).

Уравнение данной цепи имеет следующий вид:

(1)




Рис. 2. Исследуемая схема

Принимаем характеристику тиристора идеальной для открытого состояния тиристора, при этом уравнение (1) примет вид:

для не удается отобразить рисунок.

(2)

или

(3)

Для значений t , задавая шаг интегрирования h , имеем:

(4)

На рис.3 показаны кривые напряжения и тока на зажимах элементов L и R , построенных решением уравнения (4) численным методом.




Рис. 3. Кривые тока и напряжения

Как видно из этого рисунка, ток постепенно нарастает и происходит затягивание момента прекращения тока относительно момента перехода фазного напряжения через нулевое значение. Необходимо отметить, что форма кривой тока зависит от соотношения параметров цепи L и R .

Используя, эти исследованные цепи на их основе было разработано бесконтактное устройство для запуска и защиты от работы минимального напряжения электродвигателей переменного тока, предложено схема асинхронного электропривода (рисунок 4). Учитывая, частые режимы пуска электродвигателей и работы при пониженных напряжениях сети, предложена схема бесконтактного трехфазного тиристорного пускателя асинхронного электродвигателя, состоящее из шести тиристоров, шести диодов и резисторов, одного малогабаритного промежуточного реле и автомата включателя.




Рис.4. Бесконтактный тиристорный пускатель асинхронного двигателя с защитой от минимального напряжения. а) - силовая цепь б) - цепь управления

Пуск двигателя начинается с нажатием SB2 и подачей напряжения к реле KL. При этом срабатывая реле KL, замыкает свои контакты, тем самым подаются сигналы к управляющим электродам тиристоров через резисторно-диодную цепь с анодной части самих тиристоров. Открытие тиристоров приводит к подаче сетевого напряжения к двигателю, и он запускается. Во время работы, если номинального значение напряжение сети будет уменьшаться от допустимого значения, то токи в цепи управления тиристоров, которые подаются с анодной части через резистор и диод самих тиристоров, также уменьшаются, и это приводит к закрытию или отключению всех тиристоров, и соответственно к отключению от сети двигателя.

Экспериментальные исследования режима запуска электродвигателя и снятые кривые изменения тока и напряжения бесконтактно-релейного пускателя приведены на рис.5. для одной фазы. Из графика видно, что значение пускового тока номинальной величины устанавливается за два периода и достигает устойчивого режима работы при допустимых значениях тока и времени.




Рис.5. Осциллограмма тока и напряжения в одной фазе на входе

Таким образом, при анализе диодно-тиристорной цепи открытие тиристора скачком или явления резкого изменение напряжения или тока на нагрузке можем назвать релейным эффектом, и оно использовано в создании автоматической установки. В цепи соединенных тиристора, активного сопротивления и индуктивной катушки, были анализированы работа схемы на активно-индуктивную нагрузку учитывая характер нагрузки обмотки электродвигателей.

